



**MAJBURIY PAXTA YIG'IM-TERIMIGA
QARSHI HUQUQIY CHORALAR BO'YICHA
QO'LLANMA**

© 2014 Tashabbus

Barcha huquqlar himoyalangan.

“Tashabbus” nodavlat tashkiloti malakali yuristlar tomonidan O'zbekistonda kuchli huquqiy demokratik davlat qurilishi jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan. Huquqiy demokratik davlatda qonun ustuvorligi eng asosiy mezondir. “Tashabbus” O'zbekistonda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun fuqarolarning yuridik savodxonligini oshirishni eng muhim vazifa va maqsad deb biladi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun saytimizga tashrif buyuring: <http://www.tashabbus.uz>

**MAJBURIY PAXTA YIG'IM-TERIMIGA QARCHI HUQUQIY CHORALAR BO'YICHA
QO'LLANMA**

KIRISH	4
1-BO'LIM. MAJBURIY MEHNAT VA BOLALAR MEHNATI	4
A. Majburiy mehnat nima?	4
B. Mehnat qilish bo'yicha asosiy qonunchilik tamoyillari	6
1. Mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy konstitutsiyaviy huquqlar	8
2. Mehnat munosabatlarini tartibga solishda qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy huquqlarning davlat tomonidan kafolatlanishi	8
C. Bolalar mehnatiga oid qonunchilik	8
1. Bola huquqlari kafolatlari	8
2. Bolalar mehnatiga oid asosiy huquqiy normalar	8
3. Bolalar mehnatiga oid xalqaro huquq normalarining O'zbekistonda tatbiq etilishi	12
4. Kollej va litsey talabalari bolalar toifasiga kiradimi?	12
D. Majburiy mehnat qurbonlari	13
E. Majburiy mehnat sharoitlari	14
2- BO'LIM. MAJBURIY MEHNATGA QARSHI MILLIY-HUQUQIY CHORALAR	16
A. Ma'muriy va sud tartibida ko'rilishi mumkin bo'lgan choralar	16
B. Majburiy mehnat uchun javobgarlik	20
C. Majburiy mehnat ustidan qayerga murojaat qilish kerak?	23
D. Noxush voqea yuz berganda jabrlanuvchi yoki uning oila a'zolari ko'rishlari kerak bo'lgan choralar	24
E. Shikoyat arizasi qanday yoziladi?	25
F. Majburiy mehnat natijasida keltirilgan mulkiy va ma'naviy zararni undirish tartibi	29
3-BO'LIM. MAJBURIY MEHNATGA QARSHI XALQARO-HUQUQIY CHORALAR	32
A. Zamonaviy qullik shakllari bo'yicha Maxsus ma'ruzachi	33
B. Ta'lim olish huquqi bo'yicha Maxsus ma'ruzachi	34
C. Inson huquqlari himoyachilarining ahvoli bo'yicha Maxsus ma'ruzachi	35
ILOVALAR	37
1. Majburiy mehnat bo'yicha qonunchilik	37
2. Maktab direktorining paxta terishga majburlashi ustidan namunaviy shikoyat arizasi	42
3. Jinoyat ishlari sudiga mansabdor shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortishni va ma'naviy zararni undirib berishni so'rab yoziladigan ariza namunasi	43
4. Форма для представления информации Специальному докладчику по вопросам о современных формах рабства, включая их причины и последствия	44

KIRISH

O'zbekistonda har yili paxta terimiga fuqarolarni ommaviy safarbar qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Terimchilarning bir qismi o'z ixtiyori bilan chiqayotgan bo'lsa, aksariyati majburan qatnashayotganlardir. Bular orasida balog'atga yetmaganlar, talabalar, homilador va yosh farzandli ayollar ham bor. Achinarlisi, amaldagi qonunchilik mehnat qilishga majbur etishni qat'iy taqiqlasa ham, paxta terimi bilan bog'liq bunday noqonuniy holat har yili takrorlanadi. Mazkur vaziyatga chek qo'yish uchun fuqarolar o'z huquqlari bilan tanishib chiqib, ulardan qanday samarali foydalanish yo'llarini o'rganib olishlari kerak. Bunda, birinchi navbatda, amaldagi qonunchilikdan majburiy mehnat tushunchasi qanday o'rin olgani bilan tanishib chiqishlari kerak va shu qonun normalari yordamiga noqonuniy holatlarga qarshi kurashishlari lozim. Qo'llanma mazkur masalada yordam berish maqsadida yozildi.

Qo'llanma uch asosiy bo'limdan iborat. 1-bo'lim majburiy mehnat tushunchasi, uning amaldagi qonunchilik bilan qanday tartibga solinishi, majburiy mehnat qurbonlari va sharoitlari haqida ma'lumot beradi. 2-bo'lim majburiy mehnatga qarshi kurashish uchun ko'rilishi lozim bo'lgan milliy-huquqiy choralar haqida. Mazkur bo'limda ma'muriy va sud tartibida amalga oshiriladigan huquqiy choralar, majburiy mehnat uchun javobgarlik, majburiy mehnat ustidan shikoyat qilish tartibi, majburiy mehnat natijasida keltirilgan mulkiy va ma'naviy zararni undirish yo'l-yo'riqlari tushuntirilgan. 3-bo'lim majburiy mehnatga qarshi xalqaro miqyosda huquqiy choralar ko'rish tartibi haqida. Unda Birlashgan Millatlar Tashkilotining turli organlariga, xususan, Zamonaviy qulchilik shakllari bo'yicha maxsus Ma'ruzachi, Ta'lim olish huquqi bo'yicha maxsus Ma'ruzachi va Inson huquqlari himoyachilarining ahvoli bo'yicha maxsus Ma'ruzachiga shikoyat bilan murojaat qilish tartibi tushuntirilgan.

Ushbu Qo'llanma, asosan, majburiy mehnat shakllariga qarshi huquqiy choralar ko'rmoqchi bo'lgan kishilar, xususan, majburiy mehnat qurbonlari va inson huquqlari himoyachilari uchun mo'ljallangan. Qo'llanma amaliyotchi yuristlar, yuridik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari talabalari va paxta terimiga jalb etiladigan barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun ham foydali manba bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

1-BO'LIM. MAJBURIY MEHNAT VA BOLALAR MEHNATI

A. Majburiy mehnat nima?

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mehnat qilish bilan bog'liq bo'lgan asosiy tamoyillarni belgilaydi. Uning 37-moddasiga ko'ra, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega. Mazkur modda davomida majburiy mehnat taqiqlanishi va unga faqatgina qonunda ko'rsatilgan hollardagina ruxsat berilishi aytiladi.

Majburiy mehnat tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 7-moddasi va "Aholini ish bilan ta'minlash" haqidagi Qonunning 2-moddasida ta'rif berilgan. Mazkur huquqiy hujjatlarga ko'ra, majburiy mehnat bu biron jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlashdir. O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Plenum Qarorida ham majburiy mehnatga yuqoridagi kabi ta'rif bergan.

Demak, paxta terimi qonunchiligimiz doirasida majburiy mehnat deb hisoblanishi uchun kishi paxta dalasiga "jazo qo'llash tahdidi" ostida chiqayotgan bo'lishi kerak. Paxta terimiga hech qanday

tahdidsiz o'z xohishlariga ko'ra chiqayotganlar majburiy mehnat qurbonlari hisoblanmaydi. Ammo voyaga yetmaganlarning paxta terimiga hattoki o'z xohishlari bilan chiqishlari ham, qonunchilikka ko'ra, taqiqlangan.

⇒ **Eslatma:** *Voyaga yetmaganlarning paxta terimiga hattoki o'z xohishlari bilan chiqishlari ham, qonunchilikka ko'ra, taqiqlangan.*

Amaldagi qonunchilik ba'zi holatlarda ishga majbur qilishni taqiqlamaydi. Masalan, Mehnat Kodeksi va "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, quyidagi holatlarda mehnat qilishga majbur qilish majburiy mehnat hisoblanmaydi:

- harbiy yoki muqobil xizmat to'g'risidagi qonunlar asosida;
- favqulodda holat yuz bergan sharoitlarda;
- sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga binoan;
- qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

"Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda" qoidasi, odatda, ommani paxta terishga majbur qilishda huquqiy asos qilib olinmoqda. Shuning uchun e'tiborni "qonunda nazarda tutilgan boshqa hollar" nima ekaniga qaratamiz.

Paxta terishga majbur qilish "qonunda nazarda tutilgan boshqa hollar" deb hisoblanishi mumkinmi?

Mehnat qilishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarida "qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda" mehnat qilishga majbur qilish majburiy mehnat hisoblanmasligi aytiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, tegishli qonunlarda nazarda tutilgan holatlarda O'zbekistonda mehnat qilishga majburlashga yo'l qo'yiladi. Ammo bunday holatlar qonun bilan tartibga solinishi kerak. Amaldagi qonunlarning biron-tasi majburiy mehnatga qaysi holatlarda safarbar qilish mumkinligi haqida tushuntirish bermagan.

Paxta terimiga chiqish qachon "majburiy mehnat" hisoblanadi?

Majburiy mehnat ta'rifida qo'llanilgan "jazo qo'llash tahdidi" keng tushuncha bo'lib, faqatgina davlatning ma'muriy yoki jinoiy jazo qo'llash tahdidi sifatida tushunilmasligi kerak. Biron kishini o'z ixtiyoriga qarshi mehnat qilishga majbur qiladigan har qanday tahdidni "jazo qo'llash tahdidi" deb tushunish lozim. Tahdid qilish, ko'pincha, biron huquq va/yoki imtiyozlarni cheklashga qaratilgan bo'ladi.

Tahdidlar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Quyida ana shunday jazo qo'llash tahdidining ayrim ko'rinishlariga misollar keltiramiz. Ushbu ro'yxat tor doirada bo'lib, jazo qo'llash tahdidiga nimalar misol bo'lishi mumkinligini o'quvchilarga tushuntirish maqsadida tuzilgan, xolos.

⇒ **Eslatma:** *Kishini o'z ixtiyoriga qarshi mehnat qilishga majburlovchi har-qanday xatti-harakat, xususan, huquq yoki imtiyozlarning cheklanishi "jazo qo'llash tahdidi" deb baholanishga asos bo'ladi.*

O'quvchi-talabalarga nisbatan o'quv dargohi ma'muriyati tomonidan ko'rsatiladigan tahdidlarga misollar:

- Yomon baho qo'yish bilan qo'rqitish – bu ayniqsa yaxshi o'zlashtirmagan o'quvchi yoki talabalarning osonlikcha o'z ixtiyorlariga qarshi majburiy mehnat qurboni bo'lishlariga sabab bo'ladi.
- Sinfdan yoki kursdan qoldirish bilan qo'rqitish;
- Litsey, kollej yoki universitetdan haydash bilan qo'rqitish;
- Stipendiya bermaslik yoki uni paxta terimidan keyinga qoldirish bilan qo'rqitish;
- O'quv dargohi ma'muriyati tomonidan o'quvchi-talabaga xizmat ko'rsatish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan har qanday xizmatni bajarishdan bosh tortish holatlari.

Davlat idoralari, muassasalari va nodavlat tashkilotlar xodimlariga nisbatan rahbariyat ko'rsatadigan tahdidlarga misollar:

- Oylik maoshidan qirqib qolish bilan tahdid qilish;
- Oylik maoshini olish uchun paxta terimiga chiqishni shart qilib qo'yish orqali tahdid qilish;
- Yillik asosiy ta'til (otpusk) yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri uchun ta'tilni (bolnichniy) paxta terimi mavsumida bermaslik bilan tahdid qilish;
- Yillik asosiy ta'til olish uchun paxta terimiga chiqishni shart qilib qo'yish orqali tahdid qilish;
- Intizomiy jazoga tortish bilan tahdid qilish;
- Hayfsan e'lon qilish bilan tahdid qilish;
- Ishdan bo'shatish haqida ogohlantirish orqali tahdid qilish;
- O'z o'rniga mardikor topib paxta terimiga yuborishni talab qilish (mardikorga xodim cho'ntagidan to'lagan holda);
- Davlat idorasi tomonidan xodimga xizmat ko'rsatish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan har qanday xizmatni bajarishdan bosh tortish holatlari.

Ijtimoiy ta'minot oladigan fuqarolarga nisbatan mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan ko'rsatiladigan tahdidlarga misollar:

- Ijtimoiy ta'minotni to'xtatish bilan qo'rqitish;
- Ijtimoiy ta'minotni kamaytirish bilan qo'rqitish;
- Ijtimoiy ta'minot olish uchun topshirilgan hujjatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqmaslik yoki rad etish bilan qo'rqitish.

⇒ ***Eslatma:*** *Ijtimoiy ta'minotning asosiy ko'rinishlariga quyidagilar kiradi: bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, nogironlik nafaqasi, mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa, yoshga doir pensiya to'lovlari va hkz.*

Barcha guruhdagi fuqarolarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan umumiy tahdidlarga misollar:

- Paxta terimiga chiqishdan bosh tortgan fuqarolarga Ichki ishlar bo'limi tomonidan pasport bermaslik, pasportni almashtirib bermaslik, chet elga chiqish uchun OVIR vizasini bermaslik;
- Yo'l harakati qoidalarini buzgan haydovchilarga DAN xodimlari tomonidan jarima solmaslik evaziga paxta terimiga chiqish yoki o'z o'rniga paxta terimiga chiqish uchun mardikor yollashning shart qilib qo'yilishi;
- Yo'l harakati qoidalarini buzgan shaxslarga haydovchilik guvohnomasini qaytarib olish uchun paxta terimiga chiqishni shart qilib qo'yish.

- DAN xodimlari tomonidan yo'lda harakatlanib ketayotgan mashinani to'xtatib, ma'lum miqdorda paxta terib kelishni va shundan keyingina yo'lda davom etishga ruxsat berilishini aytish;

Agar biron kishi, paxta terimiga chiqishdan bosh tortgani natijada yuqoridagi kabi tahdidlarga duchor bo'lsa, u kishi noqonuniy majburiy mehnatga duchor qilinayotgan bo'ladi.

B. Mehnat qilish bo'yicha asosiy qonunchilik tamoyillari

O'zbekiston Respublikasida mehnat qilishni tartibga soluvchi ko'plab qonun hujjatlari mavjud. Ularning huquqiy maqomi, o'zaro aloqadorligi va mazmunini yaxshi tushunish uchun, qonun hujjatlari tasnifiga qisqa to'xtalib o'tamiz.

Amaldagi qonunchilik qonun hujjatlaridan (normativ-huquqiy hujjat deb ham ataladi) iboratdir. Qonun hujjatlarini qonun va qonunosti hujjatlariga ajratish mumkin. O'zbekiston Respublikasining butun hududida Konstitutsiya va qonunlar oliy yuridik maqomga ega bo'lib, ularning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Barcha qonun va qonunosti hujjatlari Konstitutsiya asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida qonunlarga quyidagilar kiradi:

- a) Konstitutsiya;
- b) Qonunlar;
- v) Oliy Majlis palatalarining qarorlari;

Ushbu qonunlar Parlament, ya'ni qonun chiqaruvchi oliy organ tomonidan qabul qilinadi. Bu degani O'zbekiston fuqarosi bo'lgan har bir shaxs bilvosita o'zlari saylagan deputatlari va senatorlari orqali ushbu qonunlarning qabul qilinishiga hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasida qonunosti hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- a) Prezidentning farmonlari;
- b) Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- v) Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari;
- g) Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Ushbu turkumdagi normativ hujjatlar xalq nomidan qabul qilinmagan bo'lib, yakka bir shaxs, davlat idorasi yoki mansabdor shaxs tomonidan qabul qilinadi va xalq irodasini ifoda etmaydi. Shuning uchun ham ularning huquqiy maqomi qonunlardan quyi pog'onada turadi.

Qonun hujjatlari o'ziga qaraganda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishi shart. Ular bir-biriga to'g'ri kelmagan hollarda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan qonun hujjati qo'llaniladi. Teng yuridik kuchga ega bo'lgan qonun hujjatlari bir-biriga to'g'ri kelmagan hollarda keyinroq qabul qilingan hujjat qoidalari amal qiladi.

Quyida O'zbekiston Respublikasida paxta dalalarida majburiy mehnatga aloqasi bo'lgan qonun hujjatlari nomlari va ularning asosiy qoidalari keltirib o'tamiz. Paxta terishga majburlanayotgan yoki majburiy mehnatga jalb qilingan shaxs, qonuniy choralardan samarali foydalanishi uchun, majburiy mehnatga aloqador bo'lgan asosiy qonun hujjatlari bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak. Zero, aynan majburiy mehnatga qarshi qonun hujjatlarida mustahkamlangan qoidalarning buzilishi

ma'muriy-huquqiy yoki sudlov tartibida choralar ko'rilishi uchun asos bo'ladi. Qonun hujjatlari tartibi yuridik maqomlariga ko'ra keltiriladi.

1. Mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy konstitutsiyaviy huquqlar

Konstitutsiyaning Muqaddimasida mehnat qilish bilan bog'liq bo'lgan bir necha tamoyil mustahkamlangan. Jumladan, Muqaddimada O'zbekiston xalqi inson huquqlari g'oyalariga sodiqligini, ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilishini, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilishini va insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlashi belgilangan.

13-moddaga binoan, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Bu degani, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

19-moddaga ko'ra, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir. Mazkur huquq va erkinliklardan sud qarorisiz mahrum etish yoki ularni cheklab qo'yish mumkin emas.

37-moddada har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash va adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga egaligi va majburiy mehnat taqiqlanishi belgilangan.

2. Mehnat munosabatlarini tartibga solishda qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy huquqlarning davlat tomonidan kafolatlanishi

Konstitutsiyaning 14-moddasida davlat o'z faoliyatini ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi o'rin olgan.

15-moddada Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinishi aytiladi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishi shart.

43-moddaga ko'ra, davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

44-moddada esa har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi ta'kidlangan.

C. Bolalar mehnatiga oid qonunchilik

1. Bola huquqlari kafolatlari

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunning 3-moddasiga binoan, “bola” deb o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga etgunga) qadar bo'lgan shaxsga aytiladi. Qonunning 4-moddasida bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilangan:

- bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

- bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash;
- bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;
- bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish;

5-moddada davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha quyidagi asosiy vakolatlarni amalga oshirishi aytiladi:

- bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini ijro etish;
- bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat organlari, bolalar muassasalari, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

10-moddada har bir bola erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egaligi belgilangan. Davlat bolani ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan himoya qilishni o'z zimmasiga oladi.

20-moddaga ko'ra, ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan boshlab yo'l qo'yiladi. Bolalarni mehnatga tayyorlash maqsadida ta'lim maskanlari o'n besh yoshga to'lgan bolalarni quyidagi shartlarga jiddiy rioya etgan holatda ishga jalb etishi mumkin:

1. Bola ota-onasidan birining yozma roziligi;
2. Mehnat turi bolaning sog'lig'iga va ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmasligi;
3. Mehnat turi ta'lim jarayonini buzmasligi;
4. Mehnat qilish o'qishdan bo'sh vaqtda bajarilishi.

2. Bolalar mehnatiga oid asosiy huquqiy normalar

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi 2009-yil 26-iyundagi 33Q/B; 13-sonli qaroriga Ilova tarzida [“O'n sakkiz yoshdan kichik shaxslarning mehnati qo'llanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari Ro'yxati”](#)ni qabul qilgan. Ro'yxatning XXVIII Qishloq xo'jaligi bo'limida paxtani qo'lda terish ishlariga 18 yoshga to'lmagan shaxslarning jalb qilinishi mumkin emasligi belgilangan.

Demak, paxta yig'im-terimiga voyaga yetmagan maktab o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalarini majburan olib chiqish mumkin emas va bu qonuniy hujjatlar asosida taqiqlangan. Voyaga yetmagan (18 yoshga to'lmagan) shaxslar o'z xohishlariga ko'ra paxta yig'im-terim ishlarida ishtirok etishni xohlasa ham, qonun hujjatlari bunga ruxsat bermaydi.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan og'ir yuk normalarining chegaralari

Bolalar ko'tarishi mumkin bo'lmagan og'irlik normalari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2009-yil 21-aprelda qabul qilingan [“O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan og'ir yuk normalarining chegarasini belgilash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida”](#)gi Qarorda belgilangan.

“O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan og'ir yuk normalarining chegarasini belgilash to'g'risida” Nizom (Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish

vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligining 2009-yil 21-apreldagi 17/QQ, 8-sonli qarori bilan tasdiqlangan) mavjud. Mazkur Nizom bolalar ko'tarishi mumkin bo'lmagan og'irliklarga tegishli bo'lgan quyidagi me'yorlarni belgilaydi:

- 16-18 yoshgacha bo'lgan shaxslarning ish vaqti (taxminan, 8 soatlik ish kuni) faqat yuklarni qo'lda ko'tarish va tashish bilan bog'liq bo'lgan ishlardan iborat bo'lganda, ular uchun yuk ko'tarish va tashish normasining chegarasi 4,1 kg. dan og'ir bo'lmasligi lozim;
- Bolalar aravacha va vagonetka yordamida yuk tashish ishlariga jalb etilmasligi lozim;
- 16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ish vaqtining uchdan bir qismi (ish vaqti 8 soat bo'lsa, taxminan 2.5 soat) yuklarni qo'lda ko'tarish va tashish bilan bog'liq ishlardan iborat bo'lganda, qo'lda yuk ko'tarish va tashish normalarining chegarasi o'g'il bolalar uchun — 6,5 kg., qiz bolalar uchun — 3,5 kg. dan og'ir bo'lmasligi lozim.
- 16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning ish vaqti faqat yuklarni qo'lda ko'tarish va tashish bilan bog'liq ishlardan iborat bo'lganda, ular uchun yuk ko'tarish va tashish normasining chegarasi 2 kg. dan og'ir bo'lmasligi lozim.

Umumta'lim maktablari, o'rta-maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarni qishloq ishlariga jalb qilishiga qo'yiladigan talablar

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish” Qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 8-fevraldagi 7-B-son buyrug'iga Ilova) mavjud. Unda yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta-maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini quyidagi shartlar asosida ishga jalb etish mumkinligi belgilangan:

- O'n besh yoshga to'lgan o'quvchilarni qishloq ishlariga jalb qilishga qo'yiladigan talablar:
 1. Maqsad yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun bo'lishi kerak;
 2. Mehnat turi ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan bo'lishi kerak;
 3. Mehnat ta'lim olish jarayonini buzmasligi kerak;
 4. Mehnat o'qishdan bo'sh vaqtida bajarilishi kerak;
 5. Mehnat qilish uchun ota-onasidan birining yozma roziligi bo'lishi kerak.
- Paxta terimi zararli va noqulay mehnat sharoitida amalga oshiriladigan ish turi bo'lgani uchun, unga o'n sakkiz yoshga to'lmaganlarni jalb qilish taqiqlanadi;
- O'quvchi va talabalar dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgandan keyingina qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinishi mumkin;
- O'rta ta'lim muassasalari rahbariyati va kasaba uyushmasi qo'mitasi birgalikda qishloq xo'jaligi ishlari boshlanishidan oldin mazkur jarayonga jalb qilinishi lozim bo'lgan o'quvchi va talabalarning ro'yxatini tuzib, ularning tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlashi lozim;
- O'quvchi va talabalarni dalaga olib chiqish va olib kelishdan oldin rahbar yo'qlama qilishi va ularga bajariladigan ish turlari bo'yicha to'liq tushuntirish, yo'l-yo'riq berishi lozim;
- Ish joylariga olib borish va qaytarib kelish faqat kunning yorug' paytida amalga oshirilishi lozim;

- G'oz bargini to'kishi uchun kimyoviy ishlov berilgan maydonga o'quvchi va talabalar kamida 10 kun muddat o'tgandan keyingina ishlashiga ruxsat etilishi lozim;
- O'quvchi va talabalar paxta terimiga jalb qilinishidan oldin maxsus kiyim-boshlar bilan ta'minlanishi kerak.

⇒ ***Eslatma:*** Yuqoridagi shartlar bajarilishi yoki bajarilmasligidan qat'i nazar, 18 yoshga to'lmagan shaxslarni paxta terimiga jalb etish mumkin emas. Shuningdek, 18 yoshga to'lgan o'quvchi-talabalar paxta yoki boshqa qishloq xo'jaligi ishlariga faqat o'qishdan bo'sh vaqtlarida, ixtiyoriy ravishda hamda yuqoridagi boshqa shartlar bajarilgan taqdirdagina olib chiqilishi mumkin.

Umumta'lim maktablari, o'rta-maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish bo'yicha mehnatga jalb qilinganda yaratilishi kerak bo'lgan shart-sharoitlar

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish” Qoidalariga (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011 yil 8 fevraldagi 7-B-son buyrug'iga Ilova) ko'ra, umumta'lim maktablari, o'rta-maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish bo'yicha mehnatga noqonuniy bo'lmagan holatda jalb qilinganda o'quvchi-talabalarga ish vaqtida quyidagi shart-sharoitlar yaratilishi kerak:

- Yashash (dam olish) xonalarida samarali havo almashinuvi tizimi bo'lishi lozim;
- Dala ishlariga jalb qilingan o'quvchi va talabalar hafta davomida 2 marta hammom qabul qilishlari lozim;
- Yuvinish (dush) xonasida yuvinish krani o'rtacha har 8 kishiga bitta bo'lishi kerak;
- Dam olish, ovqatlanish, yuvinish xonalari va hojatxonalar doimiy ravishda 0,5 foizli xorli ohak eritmasi yoki xoramin bilan yuvib va tozalab turilishi lozim;
- Turar-joy sifatida qo'llaniladigan binoga o'quvchi va talabalarning kelib joylashishlaridan (kamida 10 kun) oldin dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya ishlari o'tkazilishi shart;
- O'quvchi va talabalarning ichimlik suvidan foydalanishlari uchun suv quvuriga ulangan favvorachalar bo'lishi kerak;
- Suv quvurlari mavjud bo'lmagan hollarda, maxsus idishlarda qaynatilgan suv berilishi lozim;
- O'quvchi va talabalar ishlaydigan hududda har bir kishi boshiga 2 – 5 litr qaynatilgan kunlik ichimlik suvi tayyorlanishi lozim;
- Ichimlik suvining harorati 8°C dan 20°C gacha bo'lishi kerak;
- Ish vaqtining muddati 16 dan 18 yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga 36 soatdan, 15 dan 16gacha bo'lgan shaxslar uchun esa haftasiga 24 soatdan oshmaydigan qilib belgilanishi lozim;
- O'quvchi va talabalarni ish vaqtdan tashqari hamda tungi ishlarga jalb qilish qat'iyan taqiqlanadi;
- Yashash (dam olish) binolari yuzasi bir kishi uchun 3 m² dan, o'tish yo'lkalarining kengligi 1 metrdan kam bo'lmashligi kerak;
- Bino poli yog'och va shunga o'xshash materialdan bo'lishi lozim;

- Binoning eshik va oynalari yaxshi yopiladigan, oynalar esa tuynukchali (fortochkali) bo'lishi kerak;
- O'quvchi va talabalar orasida kasal yoki vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotganlar tibbiy xodim nazoratidan o'tishi va ular sog'liklari to'la tiklanguncha dam olish joylarida qolishi lozim;
- G'o'za bargini to'kishi uchun kimyoviy ishlov berilgan maydonga o'quvchi va talabalar kamida 10 kun muddat o'tgandan keyingina ishlashiga ruxsat etilishi lozim;
- O'quvchi va talabalar paxta terimiga jalb qilinishidan oldin maxsus kiyim-boshlar bilan ta'minlanishi kerak.

3. Bolalar mehnatiga oid xalqaro huquq normalarining O'zbekistonda tatbiq etilishi

O'zbekiston Respublikasi Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi Konvensiya, Zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi Konvensiya, Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi Konvensiyalarni ratifikatsiya qilgan va 2008-yil 12-sentabrda Vazirlar Mahkamasi [“O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyani hamda bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” Qaror](#) qabul qilgan. Mazkur qarorga ko'ra, yuqorida aytilgan ikki konvensiyani ratifikatsiya qilish munosabati bilan undagi normalarni milliy qonunchilikka tatbiq qilish uchun Milliy Harakat Rejasi (bundan keyin MHR) ishlab chiqilgan.

MHRning 20-bandi 1-qismida 2008-yil sentabr, keyinchalik har yili — avgustda paxta yig'im-terimi ishlarida umumta'lim maktablari o'quvchilarining majburiy mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan joylarda monitoring olib borish uchun ishchi guruh tashkil etilishi kerakligi belgilangan. 20-band 2-qismiga ko'ra esa, har yili — avgust-noyabr oylarida paxta yig'im-terimi ishlarida umumta'lim maktablari o'quvchilarining majburiy mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan joylarda monitoring olib borilishi kerak.

Yuqorida tilga olingan xalqaro konvensiyalar ijrosini ta'minlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2012-yil 26-martda [“O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiyani hamda bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyani 2012-2013-yillarda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida” Qaror](#) qabul qildi. Qarorga ko'ra, qabul qilingan Konvensiyalarni milliy qonunchilikka tatbiq qilish uchun 2012-2013-yillarda amalga oshirilishi rejalangan Qo'shimcha Tadbirlar Rejasi (bundan keyin Tadbirlar Rejasi) qabul qilindi.

Milliy Harakat Rejasi hamda Tadbirlar Rejasining ahamiyatli jihati shundaki, ularda O'zbekiston paxta yig'im-terim ishlarida bolalar mehnatidan foydalanish majburiy mehnat turiga kirishi tan olingan hamda bunga qarshi tegishli choralar ko'rilishi belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda, paxta yig'im-terim ishlarida voyaga yetmagan shaxslar mehnatidan foydalanish majburiy mehnat hisoblanadi va qonunga muvofiq taqiqlanadi.

4. Kollej va litsey talabalari bolalar toifasiga kiradimi?

[“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 3-bandiga](#) ko'ra, o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar) bola (bolalar) hisoblanadi. Demak, bola deganda 18 yoshga to'lmagan hamda voyaga yetmagan har qanday shaxsni tushunishimiz mumkin.

[“Ta’lim to’g’risida”gi qonunning 12-moddasiga](#) ko’ra, maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshidan qabul qilinadi.

Qonunning 10-moddasiga ko’ra, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- Maktabgacha ta’lim;
- Umumiy o‘rta ta’lim;
- O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishi – akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o‘quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Yuroqidagilardan kelib chiqib, o‘rta maxsus ta’lim, ya’ni akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalarining yoshini 15-16 dan 18-19 yoshgacha deb belgilash mumkin. Demak, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 18 yoshga to‘lmagan o‘quvchi va talabarlari huquqiy ma’noda “bola” kategoriyasida bo‘ladi.

D. Majburiy mehnat qurbonlari

Paxta terimi bilan aloqador majburiy mehnatga qarshi huquqiy choralardan samarali foydalanish uchun majburiy mehnat natijasida kishilarga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar turlarini yaxshi tushunib olish kerak.

Har yili ko‘plab insonlar paxta mavsumidagi majburiy mehnat asoratlaridan aziyat chekadi. Masalan, “Paxta kompaniyasi” huquq faollari va nodavlat tashkilotlari koalitsiyasi ma’lumotiga ko’ra, 2013-yilda paxta terimida vafot etganlar soni 11 kishini tashkil etgan. Qurbonlar orasida 6 yoshli bolakaydan tortib 63 yoshli keksa fuqarolargacha bor. Bundan tashqari majburiy paxta terimidan turli darajada moddiy, jismoniy va ruhiy zarar ko‘rganlar soni yanada ko‘p. Ushbu salbiy holatlar asosida turgan umumiy sabab bu aziyat chekkanlarning paxta terishga majburiy ravishda safarbar etilganliklaridir.

2013-yil paxta terimi bilan bog‘liq majburiy mehnat oqibatida quyidagi ko‘rinishdagi jarohat va talofatlar ro‘y bergan:

- Shaxslarning paxta terimi bilan bog‘liq ishlarda yuqori turuvchi mansabdor shaxslar yoki paxta terimiga mas’ul huquq-tartibot organlari vakillari tomonidan haqoratlanishi va/yoki kaltaklanishi;
- Mansabdor shaxs tomonidan haqoratlangani va/yoki kaltaklangan shaxsning sog‘lig‘ini yo‘qotishi, yurak xurujiga uchrashi yoki shuning oqibatida vafot etishi;
- Mansabdor shaxs tomonidan haqoratlangani va/yoki kaltaklanganini ko‘tara olmagan shaxsning o‘z joniga qasd qilishi;
- Paxta dalasida mehnat xavfsizligi sharoitlari ta’minlanmagani sababli shaxslarning jiddiy jarohat olishi yoki vafot etishi;
- Paxta dalasida gigiyena va tozalik sharoitlari ta’minlanmagani sababli shaxslarning jiddiy kasalliklarga yo‘liqishi;
- Paxta dalasida zarur tibbiy yordam ko‘rsatish choralari bo‘lmagani sababli o‘z vaqtida tez tibbiy yordamning ko‘rsatilmagani va natijada jarohat olgan shaxs ahvolidan og‘irlashishi;
- Paxta dalasida birlamchi yashash sharoitlarining mavjud emasligi;

- Paxta dalasida yuqori bosqish talabarlari quyi bosqish talabalarini paxta terishga majbur qilishi va jismoniy tazyiq o'tkazishi natijasida shaxsning jiddiy jarohat olishi yoki vafot etishi;
- Paxta dalasiga ketishda yoki qaytishda shaxslarning avtohalokatga uchrab, jiddiy tan jarohati olishi yoki vafot etishi.

Majburiy mehnatdan aziyat chekkanlar doirasini faqatgina to'g'ridan-to'g'ri jismoviy yoki moddiy zarar ko'rganlar bilan cheklash to'g'ri emas. Quyidagi kabi holatlar ham majburiy mehnat oqibatida yetkazilgan zararlar toifasiga kiradi:

- Umumta'lim va oliy ta'lim o'quvchi va talabarlari uzluksiz ta'lim olish huquqidan mahrum bo'lishi;
- Umumta'lim va oliy ta'lim o'quvchi va talabarlari sifatli ta'lim olish huquqidan mahrum bo'lishi;
- Paxta terishga shanba yoki yakshanba kuni majbur etilayotganlarning dam olishga bo'lgan huquqlarining poymol etilishi;
- Paxta terishga bayram kuni majbur etilayotganlarning bayramni oila davrasida bayram qilish huquqidan mahrum bo'lishi;
- Paxta terimiga bevosita aloqasi bo'lmagan avtoulov haydovchilarining yuk va/yoki odam tashish xizmatlarini bajarishga majbur qilinishi;
- Ishchilarning o'z kasblariga aloqador bo'lmagan va mehnat shartnomasida nazarda tutilmagan vazifalarni bajarishga jalb etilishi;
- Paxta terishni istamagan shaxslardan paxta terimi uchun ma'lum miqdorda pul talab qilinishi;

E. Majburiy mehnat sharoitlari

Majburiy ravishda paxta terishga chiqarilgan shaxslar, ko'pincha, mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan va inson sog'lig'i uchun zararli bo'lgan sharoitlarda mehnat qilishga majbur bo'ladi. Bu quyidagi kabi holatlarda o'z ifodasini topishi mumkin:

- Mansabdor shaxslar kasalligi haqida tibbiy ma'lumotnomasi bor bemor kishilarni ham paxtaga safarbar qilishi holatlari tez-tez uchrab turadi.
- Paxta terimidagi kishilar uchun yaratilgan sharoitlar sanitariya, gigiyena va sog'liqni saqlash talablariga javob bermaydi. Odatda, maktab sport zallari, koridorlar va sinfxonalaridan paxta terimchilari uchun yotoqxonalar sifatida foydalaniladi. Tabiiyki, bunday binolar insonlar yashashi uchun moslanmagan.
- Terimchilar issiq suvdan foydalanish va hammomga kirish sharoitlari bilan ta'minlanmagan.
- Paxta terimchilari uchun berilayotgan ovqat ratsioni yetarli darajada emas;
- Ishlash uchun ruxsat etilgan kunlik vaqt me'yorlariga rioya etilmaydi;
- Paxta teruvchi bolalar ba'zan paxta yetishtirish uchun dalaga sepilgan kimyoviy moddalar ta'sirida ishlashga to'g'ri keladi. Bunday zaharli kimyoviy moddalar bor joyda bolalarning ishlashi tugul, bo'lishi ham mumkin emas. Holbuki, ayrim holatlarda paxta terayotgan bolalar zaharli paxta dalalarida 8 soatgacha ishlashga majbur bo'lmoqda.

Paxta terishga majburan safarbar qilish keng miqyosda va paxta reja asosida amalga oshiriladigan amaliyot bo'lib, davlat rasmiylari atayin fuqarolar huquqlarini talab qila olmasligi va paxta terishdan bosh tortmasligi uchun "sun'iy" vaziyatlar yaratadi. Quyida shunday paxta terishga majburlash uchun asos sifatida foydalaniladigan vaziyatlaridan ba'zilarini sanab o'tamiz:

- Mehnat shartnomasiga qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish bo'yicha qo'shimcha majburiyatlar kiritilib, ushbu majburiyatga rozi bo'lmagan shaxs ishga olinmaydi yoki ishdan bo'shatilishi haqida tahdid ostiga olinadi;
- Paxta dalasiga chiqish talabi ba'zi oliy o'quv yurtlari talabalariga o'quv amaliyoti sifatida qo'yilmoqda. Vaholanki, o'quv amaliyoti har bir talabaning o'z o'quv sohasiga mos yo'nalishda bo'lishi kerak hamda qayerda amaliyot o'tashi majburan belgilanmasligi kerak.
- Paxta terimiga ixtiyoriy va o'z xohishiga ko'ra chiqayotgani haqida majburiy tilxat yozdirib olish holati ham keng tarqalgan.

2-BO'LIM. MAJBURIY MEHNATGA QARSHI MILLIY-HUQUQIY CHORALAR

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini va huquq va erkinliklarning himoya qilinishini kafolatlash shaxslarga davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqining kafolatlanishi bilan amalga oshiriladi. Shu sababli har bir davlat qonunchilik tizimida shaxslarning o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishining turli mexanizmlari ishlab chiqilgan. Bunday choralarni ishlab chiqishdan asosiy maqsad huquqbuzarliklarning oldini olish, buzilgan huquq va erkinliklarni qonuniy yo'l bilan tiklash va qonunbuzarlarni tegishli javobgarlikka tortishdir.

Shaxslar davlat organlari va mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) oqibatida o'z huquqlarini buzilgan deb hisoblaganlarida, shikoyat bilan tegishli davlat organiga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega. Bu huquqning asosini quyidagi qonun hujjatlari tashkil etadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar murojaatlari to'grisida"gi Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi Qonuni.

Konstitutsiyaning 35-moddasida har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga egaligi belgilangan. 44-moddada esa har bir shaxsning davlat organlari va mansabdor shaxslar g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Konstitutsiyaning 35 va 44-moddalaridan kelib chiqqan holda, huquqbuzarliklarga qarshi ko'rish mumkin bo'lgan huquqiy choralarni shartli ravishda ma'muriy va sud tartibida amalga oshiriladigan choralarga bo'lish mumkin.

A. Ma'muriy va sud tartibida ko'rilishi mumkin bo'lgan choralar

Ma'muriy-huquqiy choralar shaxslarning sudga murojaat qilmasdan, balki o'z huquqlarini tegishli davlat organlariga murojaat qilish orqali himoya qilishini o'z ichiga oladi. Ma'muriy-huquqiy choralar asosan tegishlilik tartibida yuqori turuvchi davlat organiga yoki prokuratura organlariga shikoyat qilish orqali amalga oshiriladi.

Tegishlilik tartibida yuqori turuvchi davlat organiga murojaat qilish

Davlat organi va mansabdor shaxsning xatti-harakatlari yoki qarori ustidan shikoyat bo'ysunuv tartibiga qarab, yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxsga beriladi. Shuning uchun, shikoyat matni tayyor bo'lgandan keyin, uni tegishli davlat organiga yuborishda tegishlilikka e'tibor berishingiz kerak.

⇒ **Eslatma:** Davlat organlari telefon raqamlari va manzillarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari Portalidan (<http://my.gov.uz/>) olishingiz mumkin.

Shikoyatni qabul qilgan yuqori turuvchi davlat organi o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy vazifalarni bajarishi lozim:

- shikoyatni xolisona, har tomonlama va o'z vaqtida tekshirishi;

- fuqaroga shikoyatni tekshirish natijalari va qabul qilingan qarorning mohiyati to'g'risida yozma tarzda ma'lumot berilishi kerak.

Mansabdor shaxslar shikoyatlarni davlat organiga tushgan kundan e'tiboran bir oy muddat ichida hal etishlari kerak. Agar shikoyat qo'shimcha o'rganishlar va tekshirishni talab qilmasa, davlat organi shikoyatda ko'tarilgan masalani 15 kundan kechiktirmay hal etishi kerak.

Ariza yoki shikoyatni hal etish uchun maxsus tekshiruvlar o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoki boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lsa, tegishli davlat organi shikoyatni hal etish muddatini, istisno tariqasida, uzaytirishi mumkin. Ammo bu muhlat bir oydan oshmasligi kerak va bu haqda ariza yoki shikoyat bergan shaxsga ma'lum qilish lozim. Bunda murojaatni ko'rib chiqish umumiy muddati ikki oydan oshmasligi kerak.

Prokuraturaga murojaat qilish

Tegishlilik tartibida yuqori turuvchi davlat organiga murojaat qilish foyda berishiga ishonmasangiz yoki foyda bermaganda, tegishli prokuratura organlariga murojaat qilishingiz kerak.

⇒ **Eslatma:** *Prokuratura organlariga shikoyat qilishda ham "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun to'la amal qiladi.*

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari qonun ustuvorligini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan eng asosiy davlat organi bo'lib, davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Prokuratura organlarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- qonun ustuvorligini ta'minlash,
- qonuniylilikni mustahkamlash,
- fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilish,
- huquqbuzarliklarning oldini olish.

⇒ **Eslatma:** *Prokuratura organlarining vakolatlari va vazifalari haqida to'liq ma'lumot uchun "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunga murojaat qiling.*

Prokuratura organlariga quyidagi holatlarda murojaat qilishingiz mumkin:

- Sizni yoki voyaga yetmagan farzandingizni paxta yig'im-terim ishlariga majburlashsa;
- Majburiy mehnatga qarshi, noqulay mehnat sharoitlari yoki mehnat shartlarining har qanday buzilishlariga qarshi ravishda berilgan ariza va shikoyatlaringizni mansabdor shaxslar hamda yuqori turuvchi organlar o'z vaqtida ko'rib chiqmasa;
- Sizning huquq va erkinliklaringizni buzadigan qaror qabul qilinsa va/yoki uning biron qismidan norozi bo'lsangiz;
- Siz topshirgan shikoyatlaringiz qabul qilinmasa yoki ularga belgilangan muddat ichida javob berilmasa.

⇒ **Eslatma:** *Prokuratura organlariga yoziladigan shikoyat namunasi ilovada berilgan.*

Prokuror o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarishda quyidagi vakolat a majburiyatlarga ega:

- fuqaroning huquq va erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi arizalar, shikoyatlar hamda boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va tekshiradi;
- arizachilarga ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish tartibini tushuntiradi;
- fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish va bartaraf etish, qonunni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish hamda yetkazilgan zararni qoplash chora-tadbirlarini ko'radi.

Fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishi ma'muriy huquqbuzarlik xususiyatiga ega bo'lgan hollarda prokuror ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atadi yoki zudlik bilan huquqbuzarlik to'g'risidagi ma'lumotni va tekshiruv materiallarini ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga beradi.

Fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishini jinoiy xususiyatga ega deb bilish uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda prokuror jinoyat ishi qo'zg'atadi hamda uni sodir etgan shaxslar qonunga binoan jinoiy javobgarlikka tortilishiga doir choralarni ko'radi.

Sud tartibida amalga oshiriladigan huquqiy choralar

Ma'muriy-huquqiy choralar yordam bermagan taqdirda yoki ulardan foydalanish yordam bermaydi deb o'ylasangiz, o'z huquq va erkinliklaringizni himoya qilish uchun sudga shikoyat qilishingiz mumkin.

⇒ ***Eslatma:*** Davlat organlari va mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan sudga murojaat qilish "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning sudga shikoyat qilishga loyiq xatti-harakatlari (qarorlar) jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Fuqaroning huquqlari va erkinliklarini buzgan;
- Fuqaroning o'z huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarishiga monelik tug'dirgan;
- Fuqaro zimmasiga qonunga xilof ravishda qandaydir majburiyat yuklatilishiga sabab bo'lgan xatti-harakatlar (qarorlar).

Shikoyatni huquqlari, erkinliklari buzilgan fuqaro yoki uning vakili, shuningdek, fuqaroning iltimosiga ko'ra jamoat birlashmasining, mehnat jamoasining vakolat berilgan vakili berishi mumkin. Shuningdek, 38-moddaga ko'ra, voyaga yetmagan, ya'ni yoshi o'n to'rt dan o'n sakkizgacha bo'lgan fuqarolarning, shuningdek muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiylar tomonidan himoya qilinadi.

Sudga shikoyat bilan murojaat qilish uchun quyidagi muddatlar belgilangan:

- fuqaro o'z huquqlari va erkinliklari buzilganligidan xabar topgan kundan boshlab uch oy;
- fuqaro yuqori turuvchi organ, mansabdor shaxsning shikoyatni qanoatlantirishni rad etish haqidagi yozma bildirishini olgan kundan boshlab bir oy;

- fuqaro o'z shikoyatiga yozma javob olmagan bo'lsa, shikoyat berganidan keyin bir oy muddat o'tgan kundan boshlab bir oy.

Shikoyat berishning uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan muddati sud tomonidan tiklanishi mumkin.

⇒ ***Eslatma:*** *Protsessual muddatlarni tiklash haqidagi qoidalarni batafsil o'rganib chiqish uchun Fuqarolik Protsessual Kodeksining 130-moddasiga murojaat qiling.*

Fuqarolar o'z shikoyatlarini quyidagi tartibda sud idoralariga yuborishi mumkin:

1. Fuqaro o'zi yashaydigan joydagi sudga;
2. Xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qilinayotgan davlat organi joylashgan yerdagi sudga, yoki;
3. Xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qilinayotgan mansabdor shaxsning ish joyi joylashgan yerdagi sudga.

Sudga murojaatingizni tayyorlayotganingizda u yoki bu hujjatni topib, shikoyat ishiga qo'shib qo'yishning ilojisi bo'lmasa, suddan mazkur hujjatning davlat organidan talab qilib olinishini so'rashingiz mumkin. Shu bilan birga, murojaatingizda sud shikoyatingiz bo'yicha qaror qabul qilishigacha siz shikoyat qilayotgan xatti-harakat (qaror) to'xtatib turilishini so'rashingiz kerak.

Shikoyatingiz sud tomonidan fuqaroviy sudlov ishlarini yuritishning umumiy qoidalari asosida ko'rib chiqiladi. Sudda siz da'vogar hisoblanasiz. Da'vogar deb o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoinki manfaatini ko'zlab ish qo'zg'atgan shaxsga aytiladi. Fuqaroviy sudlov ishlarini yuritishning umumiy qoidalariga ko'ra, da'vogarning asosiy huquqlari quyidagilardan iborat:

- ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish,
- dalillar taqdim etish va dalillarni tekshirishda ishtirok etish,
- ishda ishtirok etuvchi tomonlarga savollar berish,
- iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish,
- ishni sudda ko'rish davomida tug'iladigan hamma masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish,
- boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish,
- sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyrug'i ustidan shikoyat qilish,
- sud chiqargan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyruqning majburiy ijrosini talab qilish,
- sudning qarori ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuqori sudga shikoyat qilish.

⇒ ***Eslatma:*** *Fuqaroviy sudlov ishlarini yuritishning umumiy qoidalari uchun Fuqarolik Protsessual Kodeksiga murojaat qiling.*

Sud shikoyatning asosligini aniqlagandan keyin, uni ko'rib chiqadi. Son'g, ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hal qiluv qarori chiqaradi va unda quyidagi holatlardan birini buyuradi:

- Ustidan shikoyat berilgan xatti-harakatni (qarorni) qonunsiz deb topadi;
- Fuqaroning talablarini qanoatlantirish majburiyatini yuklaydi yoki uning buzilgan huquqlari va erkinliklarini o'zgacha yo'l bilan tiklaydi;

- Agar ustidan shikoyat berilgan xatti-harakatni (qarorni) sud fuqaroning huquqlari va erkinliklarini buzmaydigan qonuniy xatti-harakat (qaror) deb topsa, u shikoyatni qanoatlantirishni rad etadi.

Sudning hal qiluv qarori tegishli organ yoki mansabdor shaxsga, shuningdek, fuqaroga hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin o'n kundan kechiktirmay yuboriladi. Sudning qonuniy kuchga kirgan qarori barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun majburiy va uni bajarish shart. Qaror bajarilganligi haqida sudga va fuqaroga sud qarori olingan kundan boshlab kechi bilan bir oy ichida xabar qilinishi kerak. Qaror bajarilmagan taqdirda sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan chora-tadbirlarni ko'radi.

Shikoyatni ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'lgan sud xarajatlari, sud shikoyatni qanoatlantirishni rad etish haqida qaror chiqargan taqdirda, fuqaro zimmasiga yoki sud davlat organi yoki mansabdor shaxsning xatti-harakatlari (qarorlari)ni qonuniy emas deb topgan taqdirda, ular zimmasiga yuklashi mumkin.

B. Majburiy mehnat uchun javobgarlik

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, har qanday huquqbuzarlikning sodir etilishi yuridik javobgarlik uchun asos bo'ladi. Yuridik javobgarlikning 4 asosiy ko'rinishi mavjud: jinoiy, ma'muriy, intizomiy va fuqarolik-huquqiy.

O'zbekistonda Jinoyat Kodeksi bilan taqiqlangan har qanday jinoyatni sodir etish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. *Jinoiy javobgarlik* eng og'ir yuridik javobgarlik hisoblanib, bunday xatti-harakatni sodir etgan shaxs ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin. Masalan, paxta dalalarida uchraydigan ayrim noxush voqealar uchun Jinoyat Kodeksining quyidagi moddalarini qo'llash mumkin:

- 116-modda (kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik);
- 205-modda (hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish);
- 206-modda (hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish); va
- 207-modda (mansabga sovuqqonlik bilan qarash).

Ma'muriy javobgarlik Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksni buzganlik natijasida kelib chiqadi. Ma'muriy javobgarlikda huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga ko'pincha jarima solinadi. Masalan, paxta dalalarida sanitariya talablariga rioya etishni ta'minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarga Kodeksning 53-moddasiga binoan eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin.

Intizomiy javobgarlik, asosan, ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Xodim o'z mehnat majburiyatlarini bajarmaganligi yoki ularga sovuqqonlik bilan qaragani uchun, bunday xatti-harakatlar og'ir shikast yetkazmaganda, intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik esa, asosan, mulkiy va/yoki ma'naviy zarar yetkazilgani sababli kelib chiqadi va zarar yetkazgan tomondan zararni to'la qoplanishi talab qilinadi.

Kimlar javobgarlikka tortilishi mumkin?

Paxta dalasida sodir bo'lgan noxush voqeaga aloqasi bo'lgan har qanday jismoniy va yuridik shaxsga nisbatan yuqorida sanab o'tilgan javobgarlik turlarining bittasi va/yoki bir nechtasi qo'llanilishi

mumkin. Javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan eng asosiy davlat organlari va mansabdor shaxslar doirasini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

Davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvchi organlari

Qo'llanmaning 1-Ilovasida ("Majburiy mehnat bo'yicha qonunchilik") bolalarni majburiy mehnatga jalb etishning oldini olish uchun Milliy harakat rejasi va Qo'shimcha tadbirlar rejasi ishlab chiqilganligi haqida ma'lumot keltirilgan. Mazkur rejalarni bajarish uchun alohida davlat organlari mas'ul etib tayinlangan. Demak, bolalar majburiy mehnatga jalb etilgan holatlar aniqlanganda, mazkur davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari javobgarlikka tortilishi mumkin. Mazkur ikki hujjat ijrosini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari, jumladan, quyidagilardan iborat:

- Bosh Prokuratura;
- Ichki ishlar vazirligi;
- Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi;
- Xalq ta'limi vazirligi;
- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi;
- Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya
- Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari;
- «Mahalla» jamg'armasi;
- «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati;
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi.

Ta'lim maskanlari rahbarlari

Maktab va boshqa o'quv muassasalari o'quvchi-talabalarining paxta terimiga noqonuniy jalb etilgani uchun ushbu o'quv maskanlari rahbarlari ham javobgarlikka tortilishi mumkin.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga ko'ra, O'zbekistonda umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi majburiy hisoblanadi. Shunday ekan, o'qish davri davomida mazkur ta'lim maskanlari o'quvchilarining xavfsizligi va sog'lig'i uchun o'quv maskani mutasaddi rahbarlari javobgardir.

O'zbekiston Respublikasi Umumta'lim maktabi to'g'risida Nizomning 5-10-bandiga binoan, quyidagilar vazifalarni bajarish umumta'lim maktabining asosiy majburiyatlariga kiradi:

1. O'quvchilarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay shart-sharoitlar, shu jumladan, ularning o'z ustida mustaqil ishlashlari hamda qo'shimcha bilim olishlari uchun imkoniyatlar yaratilishini ta'minlash;
2. Hokimiyat va boshqaruv organlari, ota-onalar va pedagogik jamoatchiligi oldida shaxsning ta'limga bo'lgan konstitutsion huquqining amalga oshirilishi ta'minlash;
3. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning tanlangan shakllari o'quvchilar yoshining ruhiy-fiziologik xususiyatlariga, sog'liqni saqlash talablariga muvofiq kelishi, o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining qo'yilgan talablar asosida sifatli o'zlashtirilishini ta'minlash.

Mazkur majburiyatlar uchun, eng avvalo, umumta'lim maktabi direktorlari mas'uldir. Nizomning V bobida maktabning o'quv-tarbiya jarayoniga va kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlikni direktor amalga oshirishi belgilangan. Xuddi shunday qoida "Kasb-hunar maktabi to'g'risida"gi va "Kasb-hunar litseyi to'g'risida"gi Nizomlarda ham belgilangan.

Ushbu huquqiy hujjatlar maktab direktorining asosiy vazifalari qatoriga bolalikni va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etish, o'quvchilarning ovqatlanishiga javob berish, maktabdan tashqari va sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifalarini kiritadi.

O'quvchilarning paxta dalalariga olib chiqilishi mazkur majburiyatlarning birontasi ham bajarilmasligiga sabab bo'ladi. Chunki, avvalo, "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish" Qoidalari maktab o'quvchilarini paxta terimiga olib chiqishni qat'iy taqiqlaydi.

⇒ **Eslatma:** O'quvchilarni qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilishda rioya etilishi kerak bo'lgan qoidalar bilan tanishish uchun "Qonunchilik" bo'limiga murojaat qiling.

Paxta dalasidagi tibbiyot xodimlari

Paxta dalasidagi doktor yoki hamshiraning javobgarligi ham uning majburiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Majburiyatlar doirasi ko'p holatlarda mehnat shartnomasida va shu kabi boshqa hujjatlar bilan belgilanadi. Masalaning qiyin jihati shundan iboratki, tibbiyot xodimlarining paxta dalasiga chiqib paxta terayotganlarga tibbiy yordam ko'rsatishi hech qanday rasmiy hujjatda belgilanmagan. Shunday bo'lsa ham, paxta dalalariga tibbiyot xodimlari biriktirilyapti va ular paxta teruvchilarning sog'lig'i uchun mas'uldirlar.

"Umumta'lim maktabi to'g'risida"gi Nizomning 3-bandiga muvofiq, o'quvchilarga tibbiy xizmat ko'rsatish shtatli yoki maktabga maxsus biriktirilgan tibbiyot xodimi tomonidan bajariladi. Tibbiyot xodimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Bolalarning sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi uchun mas'ul;
- Tor doiradagi mutaxassislar yordamida bolalar salomatligini yillik tekshiruvdan o'tkazadi;
- Davolash-profilaktika tadbirlarini amalga oshiradi;
- Sanitariya-gigiyena normalariga, maktab o'quvchilari ovqatlanishining tartibi va sifatiga, jismoniy va aqliy nagruzklar o'lchovlariga rioya qiladi.

Yuqoridagi davlat organlari yoki mansabdor shaxslar xatti-harakatlari ustidan shikoyat arizasini yozishdan oldin, huquqbuzarlik uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxsga huquqbuzarlik zudlik bilan to'xtatilishini, aks holda yuqori turuvchi davlat organi yoki mansabdor shaxsga shikoyat arisasi bilan murojaat qilishingizni aytishingiz maqsadga muvofiq. Hattoki sizga nisbatan qilingan huquqbuzarliklar haqida ommaviy axborot vositalariga (OAV) xabar berishingiz haqida ham ogohlantirishingiz mumkin. Ba'zan shunday ish tutilganda, shikoyat yozishga hojat qolmaydi va sizga nisbatan qilingan huquqbuzarlikka chek qo'yiladi. Mazkur ko'rinishdagi ogohlantirish ortiqcha tahdidlarsiz, sokinlik bilan, ammo qat'iy ko'rinishda ifoda etilishi kerak.

⇒ **Eslatma:** *Majburiy mehnatni taqiqlovchi qonun hujjatlari ro'yhati va ularning asosiy mazmuni uchun ilovaga murojaat qiling.*

Masalan, 2 yoshlik farzandi va 6 oylik homilasi bo'lgan ayolni mahalla raisi paxta terishga majbur qilsa va, mahalla raisining tahdidiga ko'ra, ayol paxta terimiga qatnashmagan taqdirda, unga to'lanayotgan nafaqa to'lovlari yo to'xtatilishi yoki ma'lum miqdorda pul ushlab qolinishi bilan tahdid qilinsa, ushbu holat bo'yicha shikoyat yozishdan oldin, mahalla raisini quyidagi mazmunda ogohlantirishingiz kerak:

“Rais Qurbonov, men paxta yig'im-terimida qatnashishni istamayman. 6 oylik homilam bor va 2 yoshlik farzardni katta qilyapman. Amaldagi qonunchilik mehnat qilishga majburlashni taqiqlaydi. Paxta terimiga chiqmaganim uchun menga to'lanayotgan nafaqani to'xtatib qo'yish yoki ma'lum miqdorda pul ushlab qolish bilan tahdid qilish noqonuniy hisoblanadi. Menga qarshi bu ko'rinisdagi tahdidlar to'xtatilmagan taqdirda, men tuman hokimi va prokuraturaga shikoyat qilishga majbur bo'laman. Zarurat tug'ilgan taqdirda sudga noqonuniy xatti-harakatlar to'xtatilishini va menga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar undurilishini talab qilib davo arizasi topshirishga tayyorman.”

Ko'pgina holatlarda shu tarzda amalga oshirilgan ogohlantirish huquqbuzarlik to'xtatilishi va huquqlaringiz tiklanishi uchun kifoya bo'ladi. Ammo ogohlantirish kutilgan natijani bermasa va mansabdor shaxs ogohlantirishni e'tiborsiz qoldirsa, tegishli davlat organlariga shikoyat qilish bo'yicha chora ko'rishni boshlashingiz kerak.

Tegishli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar yuborilgan shikoyatlarni o'rganmasdan e'tiborsiz qoldirsa, ular amaldagi qonunchilikni buzgan hisoblanadi va buning uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 4-moddasiga ko'ra, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishni g'ayriqonuniy tarzda rad etganlik, murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzganlik, asossiz, qonunga zid qaror qabul qilganlik, shuningdek, fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklashni, shikoyat munosabati bilan qabul qilingan qarorni real bajarishni ta'minlamaganlik uchun mansabdor shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Fuqarolardan kelib tushayotgan shikoyatlarni e'tiborsiz qoldirganlik uchun jinoiy javobgarlik ham tayinlanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 144-moddasi murojaat ko'rib chiqilishini asossiz rad etish, murojaatni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish yoki qonunga zid qaror qabul qilganlik uchun jinoiy javobgarlik tayinlaydi. Jinoyat Kodeksi shaxs davlat organiga yuborgan shikoyati uchun mansabdor shaxs tomonidan ta'qib qilingani uchun ham jinoiy javobgarlik belgilaydi.

C. Majburiy mehnat ustidan qayerga murojaat qilish kerak?

Umumta'lim maktab o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari

Umumta'lim maktablari o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari maktab yoki litsey va kollej ma'muriyati tomonidan paxta yig'im-terimiga majburan jalb qilinayotgan bo'lsa, shikoyat arizalarini quyidagi ketma-ketlikda yuborishni tavsiya qilamiz:

1. Umumta'lim maktab, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji joylashgan tumandagi Xalq ta'limi bo'limiga;
2. Qoniqarli natija bermasa, ta'lim muassasasi joylashgan tuman prokuraturasiga yoki sudga.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari

Oliy ta'lim muassasalari, ya'ni, institutlar, universitetlar, akademiyalar talabalari paxta yig'im-terimi ishlariga majburan jalb qilinayotgan bo'lsa, shikoyat arizalarini quyidagi ketma-ketlikda yuborishni tavsiya qilamiz:

1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga va/yoki Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga;
2. Qoniqarli natija bermasa, ta'lim muassasasi joylashgan tuman yoki shahar prokuraturasiga yoki sudga.

Davlat idorasi, jamoat birlashmasi va boshqa idora/muassasa xodimlari

Davlat idorasi, jamoat birlashmasi, tashkilot va muassasa xodimi paxta-yig'im terimi ishlariga majburan jalb qilinayotgan bo'lsa, shikoyat arizasini quyidagi ketma-ketlikda yuborishni tavsiya qilamiz:

1. Xodim ishlaydigan davlat idorasi, jamoat birlashmasi va boshqa idora yoki muassasadan yuqori turuvchi davlat organi va davlat idorasi, jamoat birlashmasi va boshqa idora yoki muassasa joylashgan tuman yoki shahar Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish Vazirligi bo'limiga;
2. Qoniqarli natija bermasa, ta'lim muassasasi joylashgan tuman yoki shahar prokuraturasiga yoki sudga.

D. Noxush voqea yuz berganda jabrlanuvchi yoki uning oila a'zolari ko'rishi kerak bo'lgan choralar

Paxta terimi paytida terimchilarga aziyat yetkazuvchi noxush voqea yuz bergan holatda, jabrlanuvchi yoki uning oila a'zolari ko'rishlari kerak bo'lgan choralar bo'yicha tavsiyalar:

- Noxush voqea va uni keltirib chiqargan sabablar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni qurish lozim. Masalan, o'quvchini paxta dalasi oldida mashina urib ketsa, javobgarlikka nafaqat haydovchi, balki maktab direktori ham tortilishi mumkin. Zero o'quvchi o'quv jarayoni davomida paxta dalasida emas, balki maktabda ta'lim olish bilan mashg'ul bo'lganda, noxush voqea sodir bo'lmagan bo'lardi. Shu yo'sinda, o'quvchilarni paxta dalasiga olib chiqishda mahalliy hokimiyat va huquq-tartibot organlari ham qatnashgan bo'lsa, ular ham javobgarlikka tortilishi mumkin. Yoki paxta terimi davomida tibbiyot xodimiga betob bo'layotganidan shikoyat qilgan o'quvchini nazoratdan o'tkazib, tegishli davolash choralarini ko'rmasdan, aksincha, o'quvchini paxta terishda davom etishga buyurgan tibbiyot xodimi ham ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.
- Noxush voqeaga tegishli barcha ma'lumotlar rasmiylashtirilishiga, tegishli hujjatlarga kiritilishiga e'tibor bermoq lozim. Masalan, noxush voqea natijasida biror kishi vafot etgan bo'lsa, bunga nima sabab bo'lganligi, voqea soati, shart-sharoitlari va hokazolar huquq-tartibot organi xodimi tuzadigan dalolatnomaga aniq kiritilishini nazorat qilish kerak.
- Jabrlanuvchiga tan jarohati yetkazilganda, jabrlanuvchi yoki uning oilasi zudlik bilan doktorga murojaat qilib, jarohatning sababi, noxush hodisaning sodir bo'lgan vaqti,

jarohatning og'irligi kabi holatlarning barcha tafsilotlari bilan qayd etilishini nazorat qilishlari kerak. Bunday hujjat, odatda, doktor ko'rigidan keyin tuziladi.

- Noxush voqeaga tegishli hujjatlarning nusxasini jabrlanuvchi taraf, albatta, yig'ib borishi kerak.
- O'qituvchi, ta'lim muassasasi xodimi, hokimiyatda ishlaydigan mansabdor shaxs yoki huquq-tartibot organi xodimi hodisa tafsilotlarini, xususan, noxush voqea sodir bo'lgan vaqt, joy, shart-sharoitlar kabi ma'lumotlarni o'zgartirishga harakat qilishi mumkin. Bunday bo'lishiga aslo yo'l qo'ymaslik kerak. Masalan, maktab ma'muriyati faqat maktab hududida sodir etilgan hodisa yoki maktab tomonidan uyushtirilgan tadbir davomida sodir bo'lgan noxush voqea uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Shuning uchun maktab vaqtida o'quvchilar qayerda bo'lgani, nima ish bilan mashg'ul ekani kabi masalalarga e'tiborni qaratish lozim.

E. Shikoyat arizasi qanday yoziladi?

Sud tartibida bo'lmagan huquqiy choralardan foydalanishning keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri bu shikoyat arizasi bilan tegishli davlat organiga murojaat qilish huquqidir. Shikoyat kelib tushgan davlat organlari va mansabdor shaxslarga shikoyatlarni qonun bilan belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish va tegishli choralarni ko'rish majburiyati yuklatilgan. Shuning uchun, siz shikoyat qilayotganingizda davlat organi va/yoki mansabdor shaxsni "ovora" qilmaysiz, balki O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sifatida, buzilgan huquq va erkinliklaringiz tiklanishini talab qilishingiz orqali mamlakatingizda qonun ustuvorligi ta'minlanishiga o'ziga xos hissa qo'shgan bo'lasiz.

Shikoyat qilishda "Baribir foyda bermaydi, mansabdor shaxslar bir-birini qo'llaydi, shu sababli quyi mansabdor shaxsga qarshi hech qanday chora ko'rilmaydi" degan umidsizlik bilan harakat qilmaslik kerak. Aslida, ko'p holatlarda mansabdor shaxslar ularga qarshi keltiriladigan shikoyatlardan jiddiy havotirda bo'lishadi. Bo'ysinuv tartibida yuqori turuvchi mansabdor shaxs, quyi turuvchi mansabdor shaxsni "himoya" qilishi mumkin, ammo bu holat davomiy bo'lishi mumkin emas. Agar aynan bir mansabdor shaxs ustidan shikoyatlar kelaversa, yuqori turuvchi mansabdor shaxs ham ortiq "himoya" qilishga taraddudlana boshlaydi. Shu sababli, har qanday mansabdor shaxs o'z nomiga qarshi rasmiy shikoyatlardan qo'rqadi.

Shikoyatni yozma ravishda topshirishingiz kerak

Shikoyatni og'zaki yoki yozma shaklda topshirish mumkin bo'lsa ham, uni yozma ravishda topshirishni tavsiya qilamiz. Mansabdor shaxslar og'zaki shikoyatlarga ko'p holatlarda jiddiy e'tibor bermasligi mumkin. Qolaversa, og'zaki shikoyatlar ishonchsizlik, befarqlik yoki qo'rqqoqlik alomati deb talqin etilishi mumkin. Siz esa o'z huquq va erkinliklaringiz tiklanishi va hurmat qilinishi uchun harakat qilayotganingizda siz haqingizda bunday tasavvur shakllanishiga yo'l qo'ymasligingiz kerak.

Yozma shikoyat, to'g'ri rasmiylashtirilgan taqdirda, hujjat hisoblanib, davlat organi yoki mansabdor shaxsga qonunda nazarda tutilgan muddalarda tegishli choralar ko'rish majburiyatini yuklaydi.

⇒ **Eslatma:** *Shikoyat bilan davlat organlari va mansabdor shaxslarga murojaat qilish tartibi "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi.*

Shikoyat 1, 3 yoki 5 betdan iborat bo'lish kerak degan qoida mavjud emas. Ammo shikoyat matnini haddan tashqari uzaytirishdan tiyilishingiz kerak. O'rtacha shikoyat matni 1-3 betdan oshmagani maqsadga muvofiq.

Shikoyat arizasining qismlari

Shikoyatingizni to'rt asosiy bo'limga bo'lib yozishni tavsiya qilamiz: kirish, hodisalar bayoni, buzilgan qonun hujjatlari va xulosa.

a. Kirish

Shikoyatning kirish qismida murojaatingizning asosiy mazmuni haqida ma'lumot berishingiz kerak. Bunda huquqbuzarlik nimadan iboratligi va mansabdor shaxsdan qanday choralar ko'rilishi so'ralayotgani haqida aytish kifoya.

b. Hodisa bayoni

Davlat organlari va mansabdor shaxslarga kuniga minglab shikoyatlar kelib tushadi. Shikoyat qanday yozilgan bo'lsa, unga e'tibor ham shunday bo'ladi. Siz yozgan shikoyatga jiddiy e'tibor berilishining eng asosiy kafolatlaridan biri bu uning qanday yozilganligidir.

Hodisalar barcha tafsilotlari bilan va tushunarli tarzda yozilishi kerak. Ko'pincha, shikoyat yozishda kishilar umumlantiruvchi, noaniq jumladan foydalanishadi. Muammoning mohiyatini iloji boricha aniq, barcha tafsilotlari bilan bayon qilishingiz kerak. Xususan, huquq va erkinliklaringizni buzadigan xatti-harakatlar nimalardan iboratligi, ular kim tomonidan va qachon sodir etilganligi, buning natijasida yetkazilgan jismoniy va ruhiy zarar va hkz. Voqealar bayonini o'qish va bo'lib o'tgan hodisalarni tushunish oson bo'lishi uchun voqealarni xronologik tartibda bayon etishingiz mumkin.

Hodisalar bayonini yozayotganda, qanchalik achinarli holat bo'lmasin, hissiyotga berilmaslik kerak. Mazkur holat shikoyat yozishda eng ko'p uchraydigan xatolardan biri hisoblanadi. Shikoyatda huquqiy muammo yoki huquqbuzarlikning mohiyatini yoritib berish o'rniga, hissiyotlarga asoslangan haqorat yoki qarq'ish so'zlarning ishlatilishi shikoyatingizning ko'rib chiqilmasligiga yoki talablarigizning bajarilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Shikoyat imkon qadar imloviy xatolardan xoli, sodda jumlar bilan yozilishi kerak. Xatolar va mujmal jumlar bilan yozilgan shikoyatni o'qish qiyin bo'ladi va buning natijasida unga jiddiy e'tibor berilmasligi mumkin. Huquqiy muammoni batafsil, ammo qisqa va lo'nda jumlar bilan bayon etishga harakat qiling.

⇒ ***Eslatma:*** *Fuqaroning ism-sharifi, yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan va imzo qo'yilmagan murojaatlar anonim hisoblanadi va ko'rib chiqilmaydi.*

c. Buzilgan qonun hujjatlari

Shikoyatda iloji boricha sizga qarshi qilingan xatti-harakatlar qaysi qonun hujjatlarini buzishini aytib o'tishingiz kerak. Bunda qonun hujjatlaridan to'liq iqtibos keltirishning hojati bo'lmasa-da, huquqiy

me'yorning asosiy mazmuni, uning tartib raqami va mazkur me'yor nima sababdan buzilganligini bayon qilishingiz maqsadga muvofiq. Xatti-harakatlar va ularning natijasida yetkazilgan zarar qaysi qonun hujjatlarini buzishini ham aytib o'tish kerak. Bunda huquqiy me'yorlarni chuqur tahlil qilishga hojat yo'q.

Shikoyatda, iloji boricha, voqealar bayoni bilan cheklanmasdan, asoslantirilgan vajlar keltirilishi kerak. Masalan, "Maktab direktori farzandimni paxta terishga majbur qilyapti." deb yozish o'rniga quyidagicha yozish asoslantirilgan vaj bo'ladi:

- "Maktab direktori bo'lmish Irkom Rizaev 8-sinfda tahsil olayotgan farzandimni uyimizdan 20 km. uzoqlikda bo'lgan dalaga 2 haftaga paxta terishga yubormoqchi. Farzandim paxta yig'im-terimiga chiqmagan taqdirda, o'qishdan haydab yuborish bilan tahdid qilinyapti. Direktorning mazkur xatti-harakatlari Konstitutsiyani va amaldagi bir qator qonunlar bilan qat'iyan man etilgan majburiy mehnat haqidagi qoidalarni va farzandimning ta'lim va munosib hayot kechirishga bo'lgan huquq va erkinliklarini buzadi."

d. Xulosa

Shikoyatning xulosa qismida davlat organi yoki mansabdor shaxsdan siz talab yoki iltimos qilmoqchi bo'lgan choralar haqida aytishingiz kerak. Shikoyatda talablar aniq ko'rsatilishi kerak. Hech bo'lmasa, shikoyatni "Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan choralar ko'rilishini so'rayman." deb tugatishingiz kerak. Afzalrog'i esa, aniq talablarni keltirishdir. Masalan, shikoyatning Xulosa qismi quyidagicha yozilishi mumkin:

Lutfiy nomli kasb-hunar kolleji direktori Mahmud Kimsanovning farzandim Erkinjon Haqqovni paxta yig'im-terimiga qatnashishini talab qilishi, aks holda kollejdandan haydalanishi bilan tahdid qilishi amaldagi qonunlarga ziddir. Prokuratura amaldagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazorat qiluvchi organ sifatida bu huquqbuzarlikka qarshi tegishli huquqiy choralar ko'rishini so'rayman.

⇒ ***Eslatma:*** Majburiy mehnatni tartibga soluvchi qonun hujjatlari va ularning asosiy qoidalari bilan Ilovada tarnishning.

Shikoyatni yuborishda e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlar

Shikoyatingizni qaysi davlat organiga yuborishni aniqlaganingizdan keyin, uni quyidagi ikki usul bilan jo'natishingiz mumkin:

1. Pochta orqali shikoyatni buyurtma qilib ("zakaznoy") yuborish. Buyurtma xati jo'natilganda pochta xizmatchisi sizga xatni kimga va qachon yuborganingizni tasdiqlovchi patta beradi. Shikoyatlarni ko'rib chiqish muddatlari buzilsa, shu patta yordamida haq-huquqlaringizni talab qilishingiz mumkin. Undan tashqari, shikoyatni qabul qilib olgan davlat organi ham xatingiz buyurtma xati bo'lib kelganini ko'radi va tegishli muddatlarda javob berishga majbur bo'ladi.
2. Ikkinchi usul shikoyatingizni bevosita o'zingiz tegishli davlat organiga olib borib berishingizdir. Bunda e'tibor berish kerak bo'lgan holat shundan iboratki, shikoyatni ikki nusxada olib borib, bittasini mutasaddi shaxsga bering, ikkinchisiga esa shikoyat qabul qilib olinganligini tasdiqlash uchun xatni qabul qilib olgan odamga imzo va kun sanasini qo'ydirib oling. Ikkinchi nusxani o'zingizda saqlang. Bu sizga shikoyat qachon va kimga topshirilganligini isbotlashda yordam beradi.

Iloji bo'lsa, shikoyatni boshqa huquqlari buzilgan shaxslar bilan birga guruh bo'lib topshirganingiz ma'qul. Shikoyat matnini siz tayyorlasangiz ham, mazkur huquqiy muammodan aziyat chekayotgan boshqalar ham unga imzo chekishi kerak.

Shikoyatingiz tezroq ko'rib chiqilishi uchun, shikoyatingizni bir vaqtning o'zida 2-3 joyga yuborishingiz mumkin. Masalan, kasb-hunar kolleji o'quvchisi paxta terimiga majburan jalb qilinayotgani ustidan shikoyatini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim Vazirligiga, bir nusxasini tegishli prokuratura bo'limiga va yana bir nusxasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga yuborishi mumkin. Bunda davlat organlarining manzillarini shikoyatingizda ketma-ket yozsangiz bo'ladi. Shunda shikoyatingizni o'qigan mutasaddi shaxs, shikoyat boshqa qaysi davlat organlariga yuborilganligini biladi va bu holat uning siz shikoyat qilayotgan masalalarni tezroq hal qilishiga turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Birinchi bo'lib shikoyatni sizning huquq va erkinliklaringizni qaysi davlat organi yoki mansabdor shaxs buzgan bo'lsa, shunga yuborish kerak. Shikoyatda sizning murojaatingiz e'tiborsiz qoldirilgan taqdirda navbat bilan tegishlilik tartibida yuqori turuvchi organ, prokuratura va sudga murojaat qilishingizni bildiring. Shu yo'sinda, agar shikoyatingiz e'tiborsiz qoldirilsa, mazkur davlat organi yoki mansabdor shaxsdan tobelik bo'yicha yuqori turuvchi davlat organiga murojaat qilishingiz kerak.

Shikoyatni elektron manzilga yuborish mumkinmi?

Umuman olganda, davlat organlariga shikoyatni ularning elektron manzillariga yuborish taqiqlanmagan. Yuqorida aytib o'tilganidek, shikoyat og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin. Eng muhimi, shikoyat anonim bo'lmasligi va unda, albatta, shikoyat qiluvchining ism-sharifi va yashash joyi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Biz shikoyatni davlat organi elektron manzilga yubormaslikni tavsiya qilamiz. Bunga birinchi sabab shuki, elektron manzilga yuborgan shikoyatingiz davlat organiga yetib boradimi yo'qmi, buni bilish qiyin. Masalan, siz yuborgan shikoyat elektron pochtaning "Spam" ("Keraksiz xatlar") papkasiga ketib qolishi mumkin. Bunday xatlarni pochta egalari odatda o'qimaydi. Shuningdek, tashkilotlar elektron pochta xatlarini muntazam tekshirishiga ham kafolat yo'q.

Elektron manzil o'rniga shikoyatni Yagona interaktiv davlat xizmatlari Portalidan (bundan buyon Yagona portal) yuborishingiz mumkin. Yagona portal "elektron hukumat"ning bir ko'rinishi bo'lib, fuqarolarga davlat organlari bilan zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida aloqaga chiqishni ta'minlaydi. Yagona portalning asosiy vazifalari, jumladan, quyidagilardan iborat:

- foydalanuvchilarga davlat organlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish;
- foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;
- davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to'siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish.

Yagona portaldan qanday foydalanish mumkinligi haqida to'liq axborotni uning veb sahifasidan olish mumkin - <http://my.gov.uz/>. Biz shikoyatni hozircha Yagona portaldan yubormaslikni tavsiya qilamiz. Birinchidan, Yagona portal 2013-yilning iyul oyida ishga tushdi. Shu sababli hali to'laqonli xizmat ko'rsatmayapti. Ikkinchidan, Internet xizmatidan hamma ham foydalanish imkoniyatiga ega emas.

Yakuniy maslahatlar

Huquqiy muammoga aloqador bo'lgan har qanday hujjatni yig'ib borish uchun alohida papka tutishingiz ham mumkin. Birinchidan, bu bilan barcha hujjatlarni bir joyda to'plab, kerak bo'lganda osonlik bilan kerakli hujjatni topa olish imkoniga ega bo'lasiz. Ikkinchidan, bu sizning huquqiy muammoni hal etishga jiddiy kirishganingizdan dalolat beradi. Har qanday mansabdor shaxs qabuliga hujjatlar to'plami bilan kirish, uning sizga bo'lgan hurmatini oshiradi va muammoni yaqindan o'rganib chiqishga undaydi.

Shikoyatingizga davlat organlari va mansabdor shaxslardan kelgan barcha javoblarni yig'ib borishni unutmang. Tobelik tartibida yuqori turuvchi davlat organiga murojaat qilganingizda, sizning huquqiy muammoingizni hal etishda yordam bermagan barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarni sanab o'tish kerak.

F. Mahburiy mehnat natijasida keltirilgan mulkiy va ma'naviy zararni undirish tartibi

Amaldagi qonunchilikda huquqbuzarlik tufayli yetkazilgan mulkiy va nomulkiy zararni qoplash huquqi mavjud. Yetkazilgan zarar moddiy yoki ma'naviy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Fuqarolik Kodeksining 989-moddasi 1-qismiga ko'ra, yuridik shaxs yoxud fuqaro o'z xodimi mehnat majburiyatlarini bajarib turgan vaqtida yetkazilgan zararni qoplaydi. Oliy Sud Plenumi qarori ko'ra, mazkur qoidada aytib o'tilgan "zarar" ichiga ma'naviy zarar ham kiradi.

Moddiy zararni undirish tartibi

Jinoyat Protsessual Kodeksining 275-moddasiga quyidagi toifadagi mulkiy ziyon qoplanishi kafolatlanandi:

- bevosita jinoyat tufayli fuqarolarga yetkazilgan ziyon;
- jabrlanuvchini dafn etish bo'yicha xarajatlar;
- jabrlanuvchining kasalxonada davolanishi bo'yicha xarajatlar;
- sug'urta tariqasida unga to'langan pul, nafaqa yoki pensiya pulini undirish.

Mulkiy ziyonni qoplash ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. Bunday mazmundagi da'vo bevosita jinoyat ishi ko'rib chiqilayotganda ko'rilishi mumkin;
2. Jinoyat ishi davomida ko'rilmagan taqdirda, alohida fuqarolik sudlariga mulkiy va ma'naviy zararni undirishni so'rab da'vo arizasi topshirilishi mumkin.

Fuqaroviy da'vo yozma shaklda ham, og'zaki shaklda ham qo'zg'atilishi mumkin bo'lib, uning qo'zg'atilishi, ko'rib chiqilishi va hal qilinishi uchun davlat boji undirilmaydi.

Masalan, paxta dalasiga majburlab olib chiqilgan maktab o'quvchisi paxta terimi davomida vafot etsa yoki jarohat olsa, uning ota-onasi quyidagi davlat organlari va/yoki mansabdor shaxslarga qarshi da'vo ochishi mumkin:

- Davlat organi mansabdor shaxslari;
- Maktab ma'muriyati;
- Doktor/hamshira.

Bunda Jinoyat Kodeksining quyidagi moddalariga asoslanish mumkin:

- 117-moddasi (xavf ostida qoldirish);
- 205-modda (hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish);
- 206-modda (hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish);
- 207-modda (mansabga sovuqqonlik bilan qarash)

Ma'naviy zararni undirish tartibi

Fuqarolik Kodeksining 11-moddasiga binoan, fuqarolik huquqlarini himoya qilish huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash, zararni to'lash va ma'naviy ziyonni qoplashni ham o'z ichiga oladi.

Amaldagi qonunchilikda "ma'naviy zarar" tushunchasiga ta'rif berilmagan. Ammo Oliy Sud Planumi qaroriga ko'ra, "ma'naviy zarar" bu jabrlanuvchiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarlik harakati (harakatsizlik) oqibatida u boshidan kechirgan ma'naviy va jismoniy azoblardir.

Fuqarolik Kodeksining 1021-moddasiga binoan, ma'naviy zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning kelib chiqishiga asos bo'luvchi shartlardan biri zarar yetkazuvchining aybi hisoblanadi. Demak, ma'naviy zarar qoplanishini talab qilish uchun kishiga nisbatan g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik sodir etilgan bo'lishi kerak. Bunday g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) kishi hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmat, shaxsiy hayotining daxlsizligi, mulk huquqi kabi manfaatlaridan bittasi yoki bir nechtasiga qarshi qaratilgan bo'lishi mumkin.

Ma'naviy zararni talab qilishga asos beradigan holatlarga misollar:

- Paxta terishga majbur qilinish sababli ruhiy azob ko'rish (mazkur holat kishiga to'g'ridan-to'g'ri hech qanday jismoniy zarar yetkazilmasa ham, jiddiy ma'naviy azob beradi, chunki kishi o'z istagiga qarshi paxta terishga majbur qilinyapti).
- Yaqin qarindoshni yo'qotish sababli ma'naviy qayg'urish (masalan, paxta dalasida vafot etgan yoki jiddiy tan jarohati olgan bola ota-onasining qayg'urishi);
- Sog'liqqa yetkazilgan har qanday ziyon (masalan, jarohat olish natijasida, u yengil jarohat bo'lsa ham, kishiga jismoniy va ruhiy azob berishi);
- Ijtimoiy hayotdagi faolligini davom ettira olmaslik (masalan, jabrlanuvchi paxta dalasida ko'rish qobiliyatini yo'qotsa yoki boshqa turdagi nogironlikka uchrasa);
- Ma'lum bir huquq va erkinliklardan mahrum bo'lish (masalan, kishilar, xususan, yoshlar, majburan paxta terish o'rniga ta'lim olish, sport bilan shug'ullanish, mazmunli vaqt o'tkazish imkoniyatidan mahrum bo'lishi);
- Kunlik paxta terish normasini bajarmaganlik uchun kishining kamsitilishi va xo'rlanishi;
- Paxta terimiga jalb qilingan kishilarning isitilmagan xonalarga joylashtirilishi;
- Paxta terimiga jalb qilinganlarga oddiy sanitariya talablariga javob beradigan sharoitning yaratib berilmasligi (masalan, hojatxona va hammomlarning yetarli smiqdorda va sifatda bo'lmasligi, iflosligi, sovuq va iliq suv bilan ta'minlanmaganligi);

Istisnoli holatlarda ma'naviy zarar uni yetkazuvchining aybidan qat'i nazar qoplanadi (1021-modda, Fuqarolik Kodeksi). Shunday holatlarga, jumladan, quyidagilar kiradi:

- Zarar fuqaroning hayoti va sog'lig'iga oshiqcha xavf manbai tomonidan yetkazilgan bo'lsa;
- Zarar fuqaroga uni qonunga xilof tarzda hukm qilish, qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni yoki munosib xulq-atvorda

bo'lish haqida tilxat olishni qonunga xilof tarzda qo'llanish, qonunga xilof tarzda ma'muriy jazo qo'llanish va qonunga xilof tarzda ushlab turish natijasida yetkazilgan bo'lsa.

Zarar yetkazuvchining aybidan qat'i nazar, talab qilinishi mumkin bo'lgan ma'naviy zararga misollar:

- Paxta terayotgan kishini traktor (oshiqcha xavf manbai) bosib ketsa, haydovchining aybidan qat'i nazar, ma'naviy zarar to'lanishini talab qilish mumkin;
- Avtoullov haydovchisiga DAN xodimi paxta terishdan yoki paxta terimiga tegishli ishni qilishdan bosh tortgani uchun ma'muriy jazo qo'llasa yoki avtoullovini qonunga xilof tarzda ushlab tursa, bu holatda ham ma'naviy zarar undirilishini talab qilish mumkin.

Ma'naviy zarar miqdorini aniqlash

Ma'naviy zarar pul bilan qoplanadi (Fuqarolik Kodeksining 1022-moddasi). Ma'naviy zararni qoplash miqdori jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyatiga, shuningdek, ayb tovon to'lashga asos bo'lgan hollarda zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab sud tomonidan aniqlanadi.

Ma'naviy zarar to'lanishi lozim bo'lgan mulkiy zarar qancha bo'lishidan qat'i nazar qoplanadi. Oliy Sud Planumi qaroriga binoan, sud ma'naviy zarar miqdorini aniqlashda quyidagilarni hisobga olishi zarur:

- Jabrlanuvchiga jismoniy va ma'naviy azoblar yetkazilganini qanday asosga ko'ra tasdiqlanishini,
- Jabrlanuvchiga jismoniy va ma'naviy azoblar qanday holatlarda va qanday harakatlar (harakatsizlik) bilan yetkazilganligini;
- Zarar yetkazuvchining ayb darajasi; va
- Jabrlanuvchi qanday ma'naviy va jismoniy azoblar tortganini.

Ma'naviy zarar miqdorini belgilashda sud jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar darajasini ko'rsatuvchi ob'yektiv ma'lumotlar bilan birga, jabrlanuvchining sub'yektiv bahosini ham e'tiborga oladi.

Agar ma'naviy zarar bir necha kishining birgalikdagi harakatlari tufayli yetkazilgan bo'lsa, jabrlanuvchi ularning hammasini sheriklik tarzida yoki har biridan alohida ma'naviy zarar undirilishini talab qilishi mumkin (1000-modda, Fuqarolik Kodeksi).

Masalan, paxta dalasida sodir bo'lgan noxush voqea sababli tuman hokimi, militsiya xodimi va maktab direktori jinoiy javobgarlikka tortiladigan bo'lsa, moddiy va/yoki ma'naviy zarar ko'rgan kishi ularning hammasini sheriklik tarzida yoki har biridan alohida ma'naviy zarar undirilishini talab qilishga haqli.

Fuqarolik Kodeksining 163-moddasi, 1-qismiga muvofiq, ma'naviy zararni undirish haqidagi talablarga da'vo muddati joriy qilinmaydi. Demak, sizga yetkazilgan ma'naviy zararni istalgan paytda, bo'lib otgan voqeaga 10 yil, 20 yoki undan ko'p muddat bo'lgan bo'lsa ham, zararni undirishni so'rab sudga murojaat qilishingiz mumkin.

3-BO'LIM. MAJBURIY MEHNATGA QARSHI XALQARO-HUQUQIY CHORALAR

Yuqorida bayon etilgan milliy huquqiy choralar foyda bermagan taqdirda, majburiy mehnat qurbonlari xalqaro-huquqiy choralardan foydalanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bir qator asosiy xalqaro inson huquqlari bo'yicha shartnomalarni ratifikatsiya qilgan. Ratifikatsiya qilish orqali, hukumat xalqaro hujjat me'yorlarini bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi va ularni ichki qonunchilikka tatbiq etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishini lozim. Masalan, Mehnat Kodeksining 10-moddasida agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida yoki Xalqaro Mehnat Tashkilotining O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyasida xodimlar uchun mehnat to'g'risidagi qonunlar yoki boshqa normativ hujjatlarga nisbatan imtiyozliroq qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki konvensiyaning qoidalari qo'llanilishi aytiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining yoki Xalqaro Mehnat Tashkilotining O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyasining qoidalari mehnatga oid munosabatlar bevosita qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan hollarda ham qo'llanilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi uchun majburiy xarakterga ega bo'lgan xalqaro hujjatlar qatoriga, jumladan, quyidagilar kiradi:

1. Umumjahon Inson huquqlari Deklaratsiyasi
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Konvensiya
3. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Konvensiya
4. Ayollarga qarshi kamsitishning barcha turlariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya
5. Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya
6. Zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi Konvensiya
7. Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi Konvensiya

Xalqaro-huquqiy choralar orasida majburiy mehnatga qarshi chora ko'rishda eng samarali bo'lishi mumkin bo'lgani bu BMTning maxsus protsedurasidir. Inson huquqlari Kengashi o'z faoliyatida "maxsus protsedura" deb nomlanadigan tartibdan keng foydalanadi. Maxsus protsedura inson huquqlari bo'yicha mutaxassislarni o'z ichiga olib, uning vakolatiga inson huquqlari bo'yicha tematik yoki alohida davlatga xos masalalar yuzasidan maslahat va/yoki hisobot berish kiradi. Mutaxassislar odatda "maxsus ma'ruzachi" deb nomlanadi. 2013-yil oktabr oyi holatiga ko'ra, 37 tematik va 14 alohida davlatga xos maxsus protseduralar faoliyat ko'rsatmoqda.

Maxsus protsedura yo shaxslardan (masalan, Maxsus ma'ruzachilar) yoki ishchi guruhlardan (masalan, Asossiz ushlab turishlar bo'yicha ishchi guruh) iborat bo'ladi. Maxsus protsedurada ishlaydigan mutaxassislar BMT xodimlari hisoblanmaydi va o'z faoliyatlari uchun haq olmaydi. Shu orqali mutaxassislarning mustaqilligi va betarafligi ta'minlanadi.

O'z faoliyatlarini amalga oshirishda maxsus ma'ruzachilar quyidagi xatti-harakatlarni bajarishlari mumkin:

- Davlatlarga tashrif buyurib, u yerdagi inson huquqlari bo'yicha holatni o'rganadi;
- Inson huquqlarining buzilishi holatlari aniqlangan taqdirda, davlat bilan aloqa o'rnatib, vaziyat bo'yicha o'z e'tirozini va/yoki xavotirini bildiradi;
- Inson huquqlari buzilishi qurbonlaridan ma'lumotlar qabul qiladi;
- BMT qoshidagi Inson huquqlari kengashiga hisobot beradi.

Maxsus protseduralar faoliyatining asosiy qismini shaxslardan inson huquqlari buzilishi haqida ma'lumot va shikoyatlarni qabul qilish va o'rganib chiqish tashkil etadi. Maxsus protseduraga shikoyatni 2 asosiy yo'l bilan yuborish mumkin:

- Shoshilinch murojaat ("Urgent Appeal") orqali: Maxsus protsedura bilan mazkur usul bilan aloqaga chiqishingiz uchun huquqbuzarlik davom etayotgan va/yoki uning natijasida kishiga jiddiy ziyon yetkazilishi mumkin bo'lgan holat mavjud bo'lishi kerak. Bu yerda asosiy maqsad davlat organlarini davom etayotgan huquqbuzarliklar haqida o'z vaqtida xabardor qilish orqali huquqbuzarlikning oldini olish hisoblanadi;
- Shikoyat xati ("Allegation Letters") orqali: Hodisa sodir bo'lgandan keyin shikoyat arizalari bilan murojaat qilish. Bu yerda asosiy maqsad Maxsus protseduraning e'tiborini davlat organlarining e'tiborsizligiga qaratish va uning xalqaro huquq me'yorlariga rioya etishini talab qilish.

BMTning majburiy mehnatga aloqador uch maxsus protsedurasi mavjud:

1. Zamonaviy qullik shakllari bo'yicha Maxsus ma'ruzachi;
2. Ta'lim olish huquqi bo'yicha Maxsus ma'ruzachi;
3. Inson huquqlari himoyachilari holatlari bo'yicha Maxsus ma'ruzachi.

A. Zamonaviy qullik shakllari bo'yicha Maxsus ma'ruzachi

BMTning Inson huquqlari Kengashi 2007-yil sentabr oyida Zamonaviy qullik shakllari bo'yicha Maxsus ma'ruzachini (bundan buyon Maxsus ma'ruzachi) ta'xis etdi.

Maxsus ma'ruzachi vakolatiga, jumladan, quyidagilar kiradi:

- Zamonaviy qullik shakllari bo'yicha xalqaro hujjatlarning samarali amalga oshirishiga ko'maklashish;
- Davlatlar, xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari va boshqa manbalardan zamonaviy qullik shakllari bo'yicha ma'lumotlar talab qilish, qabul qilish va almashinish;
- Ishonchli manbalardan zamonaviy qullik haqida ma'lumot kelganda jabrdiydalarning huquqlarini himoya qilish maqsadida samarali choralar ko'rish;
- Zamonaviy qullikka barham berish bo'yicha milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda amalga oshirish mumkin bo'lgan harakat va choralar tavsiya qilish.

Maxsus ma'ruzachi o'z vazifalarini amalga oshirishda joylardan kelayotgan ma'lumotlarga tayanadi. Bunday ma'lumotlarni, asosan, bevosita zamonaviy qullik qurbonlari va ularning oila a'zolaridan va mahalliy hamda xalqaro nodavlat tashkilotlardan oladi. Maxsus ma'ruzachi turli manbalardan ma'lumot yig'ish samarasini oshirish maqsadida maxsus tartib ishlab chiqqan. Mazkur tartibga ko'ra, Maxsus ma'ruzachiga zamonaviy qullikka tegishli bo'lgan ma'lumot topshirmoqchi bo'lgan kishi maxsus formani to'ldirishi kerak.

Afsuski, Maxsus ma'ruzachining veb sahifasida mazkur formaning faqat ingliz, ispan va fransuz tilida tayyorlangan nusxalari mavjud. Shu sababli Maxsus ma'ruzachiga ma'lumot va/yoki shikoyat yuborish uchun mazkur qo'llanmaga ilova qilingan formadan (4-Ilova) foydalanishingizni tavsiya qilamiz. Forma rus tilida tayyorlangan. Sizga formani rus tilida yoki BMTning 6 ta ish tillaridan birida to'ldirishingizni maslahat beramiz.

⇒ **Eslatma:** *BMTning ish tillariga ingliz, arab, ispan, rus, fransuz va xitoy tillari kiradi.*

Formada ma'lumotlar iloji boricha barcha tafsilotlari bilan berilishi kerak. Formadagi vajlar o'rganib chiqilgandan keyin, Maxsus ma'ruzachi formada keltirilgan ma'lumotlarni aniqlash uchun bevosita davlat bilan aloqaga chiqib, masala bo'yicha tushuntirish berishini so'rashi va ro'y berayotgan huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha boshqa chora-tadbirlar ko'rishni boshlaydi. Maxsus ma'ruzachi unga kelib tushgan ma'lumot va shikoyatlar bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar va ularning samarasi haqida Inson huquqlari bo'yicha Kengashga har yili hisobot topshiradi.

Formada keltirilgan ma'lumotlar, xususan, majburiy mehnat qurbonining ismi sir saqlanadi. Ammo mazkur ma'lumot Maxsus ma'ruzachi Inson huquqlari bo'yicha Kengashga yillik hisobot berayotganda oshkor etiladi. 18 yoshga yetmagan va jinsiy tajovuz qurboni bo'lganlarning to'liq ism-sharifi oshkor etilmasdan, faqatgina ism-sharifining bosh harflari yoziladi.

To'ldirilgan formani Maxsus ma'ruzachining faks raqamiga ((+41229179006), elektron pochtaga (srsavery@ohchr.org) yoki pochta orqali quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:

Special Rapporteur on Contemporary forms of slavery
Office of the High Commissioner for Human Rights
8-14 Avenue de la Paix
1211 Geneva 10
Switzerland

B. Ta'lim olish huquqi bo'yicha Maxsus ma'ruzachi

Ta'lim olish huquqi bo'yicha Maxsus ma'ruzachi mustaqil ekspert hisoblanib, Inson huquqlari bo'yicha Kengash tomonidan kishilarning ta'lim olish huquqini himoya va tashviq qilish uchun ta'sis etilgan.

Maxsus ma'ruzachining asosiy vakolatlari quyidagilardan iborat:

- Kishilarning ta'lim olish huquqiga va uni samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan holatlar bo'yicha turli manbalardan ma'lumotlarni to'plash;
- Kishilarning ta'lim olish huquqini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish;
- Ta'lim olish huquqidan samarali foydalanishga to'sqinlik qilayotgan holatlarning oldini olish bo'yicha choralarni kuchaytirish;
- Ta'lim olish huquqining boshqa inson huquqlari bilan o'zaro aloqadorligini o'rganish;
- Ta'lim olish huquqining huquqiy himoyasini ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish;

Zamonaviy qullik shakllari bo'yicha Maxsus ma'ruzachidan farqli o'laroq, Ta'lim olish huquqi bo'yicha Maxsus ma'ruzachiga ma'lumot va shikoyatlarni taqdim etish uchun alohida forma ishlab chiqilmagan. Shikoyatingiz Maxsus ma'ruzachi tomonidan o'rganib chiqilishi uchun quyidagi ma'lumotlar berilishiga e'tibor qaratishingiz kerak:

- Ta'lim olish huquqidan mahrum etilgan kishi haqidagi ma'lumotlar
- Ta'lim olish huquqidan to'la foydalanishga to'sqinlik qilayotgan davlat organi yoki mansabdor shaxs haqidagi ma'lumotlar;

- Ta'lim olish huquqini cheklovchi harakatlar haqida ma'lumot: kuni, sanasi, joyi, bo'lib otgan voqeaning qisqa bayoni va hkz. Bunda ma'lumot sodir etilgan va/yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan holatlarni qamrab olishi mumkin.

Ta'lim olish huquqi bo'yicha Maxsus ma'ruzachiga ma'lumotlar bevosita huquqbuzarlik qurboni, uning oilasi va yaqinlari tomonidan topshirilishi mumkin.

Maxsus ma'ruzachiga ma'lumot va/yoki shikoyatni erkin tarzda yozib, uni faks orqali (+41 22 917 90 06) yo elektron pochtaga (urgent-action@ohchr.org) yoki quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:

Special Rapporteur on the Right to Education
Office of the High Commissioner for Human Rights
8-14 Avenue de la Paix
1211 Geneva 10
Switzerland

C. Inson huquqlari himoyachilarining ahvoli bo'yicha Maxsus ma'ruzachi

Ba'zan majburiy mehnat qurbonlariga yordam bergan kishilarning mansabdor shaxslar tomonidan siquvga olinishi holatlari ham uchrab turadi. Bunday holatda Inson huquqlari himoyachilarining ahvoli bo'yicha Maxsus ma'ruzachiga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Inson huquqlari himoyachilarining ahvoli bo'yicha Maxsus ma'ruzachi Inson huquqlari Kengashi tomonidan ta'sis etilgan. Maxsus ma'ruzachining eng asosiy vazifalaridan biri inson huquqlari himoyachilarini himoya qilish va ularning inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatlariga ko'maklashishdir. Inson huquqlari himoyachilari o'z faoliyatlarini amalga oshira olmagan yoki amalga oshirganlari sababli ta'qibga uchragan holatlar yuzasidan Maxsus ma'ruzachiga shikoyat topshirish mumkin.

Inson huquqlari himoyachilari bo'yicha Maxsus ma'ruzachiga shikoyatlarni topshirish uchun alohida forma to'ldirilishi talab qilinmasa ham, quyida keltirilgan ma'lumotlar berilishi talab qilinadi:

1. Jabrdiyda kim? Bu yerda jabr ko'rgan inson huquqlari himoyachisi haqida quyidagi ma'lumotlar yozilishi kerak:
 - a. To'liq ism-sharifi;
 - b. Yoshi;
 - c. Jinsi;
 - d. Fuqaroligi;
 - e. Kasbi;
 - f. Aloqa ma'lumotlari (manzil, elektron pochta adresi, telefon va hkz)
2. Jabrdiyda inson huquqlari himoyachisimi? Bu yerda jabr ko'rgan kishi inson huquqlari himoyachisi ekanligi haqida ma'lumot berilishi kerak. Masalan, kishi qanday inson huquqlari faoliyati bilan shug'ullangan, o'z faoliyatini qayerda amalga oshirgan va hkz.
3. Huquqbuzarlik nimadan iborat? Bu yerda jabr ko'rgan kishiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarliklar haqida batafsil ma'lumot berilishi kerak. Masalan, huquqbuzarlik qanday, qachon, qayerda sodir etildi va hkz.

4. Huquqbuzarliklar kim tomonidan sodir etildi?: Bu yerda jabr ko'rgan kishiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarliklar kim tomonidan sodir etilganligi haqida batafsil ma'lumot berilishi kerak. Masalan, huquqbuzarlarning ism-sharifi, qaysa davlat organida ishlashi, lavozimi, guvohlar haqida ma'lumot va hkz.
5. Davlat organlari qanday choralar ko'rди? Bu yerda davlat organlari huquqbuzarlik uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxsni javobgarlikka tortish bo'yicha qilgan xatti-harakatlari haqida ma'lumot berilishi kerak. Masalan, ko'rilgan yoki ko'rilmagan choralar, ularning natijasi va hkz.
6. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyat va huquqbuzarlik o'rtasidagi aloqadorlik. Bu yerda huquqbuzarlik nimaga jabr ko'rgan kishining inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyati bilan bog'liqligi haqida ma'lumot berilishi kerak. Agar inson huquqlari himoyachisi avval ham turli xil tazyiq va huquqbuzarliklar qurboni bo'lgan bo'lsa, mazkur holatlar haqida ma'lumot keltirishingiz kerak.
7. Shikoyat kim tomonidan topshirilayotgani haqida ma'lumot.

Shikoyatni qabul qilgan Maxsus ma'ruzachi, agarda shikoyatda ko'tarilgan masalalar uning vakolati doirasiga kirsam, yuborilgan shikoyat va unda ko'tarilgan masalalar yuzasidan tegishli davlat organini xabardor qilib, undan huquqbuzarlik bartaraf etilishini, huquqbuzarlik o'rganib chiqilib, uning xulosalari haqida Maxsus ma'ruzachi xabardor etilishini iltimos qiladi.

To'ldirilgan forma Maxsus ma'ruzachining faks raqamiga ((+41229179006), elektron pochta-siga (urgent-action@ohchr.org) yoki quyidagi manzilga yuborilishi mumkin:

Special Rapporteur on the Situation of Human Rights Defenders
Office of the High Commissioner for Human Rights
Palais Wilson
52 rue des Pâquis
1211 Geneva 10
Switzerland

ILOVALAR

1-Ilova

Majburiy mehnat bo'yicha qonunchilik

O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatning taqiqlanishi ko'plab qonun hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Ularning huquqiy maqomi, o'zaro aloqadorligi va mazmunini yaxshi tushunish uchun qonun hujjatlari tasnifiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Amaldagi qonunchilik qonun hujjatlaridan (normativ-huquqiy hujjat deb ham ataladi) iboratdir. Qonun hujjatlarini qonun va qonunosti hujjatlariga ajratish mumkin. O'zbekiston Respublikasining butun hududida Konstitutsiya va qonunlar oliy yuridik maqomga ega bo'lib, ularning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Barcha qonun va qonunosti hujjatlari Konstitutsiya asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga quyidagilar kiradi:

- a) Konstitutsiya;
- b) Qonunlar;
- v) Oliy Majlis palatalarining qarorlari;

Ushbu qonunlar Parlament, ya'ni Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi. Bu degani O'zbekiston fuqarosi bo'lgan har bir shaxs bilvosita o'zlari saylagan deputatlari va senatorlari orqali ovoz berish yo'li bilan ushbu qonunlarning qabul qilinishiga hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasida qonunosti hujjatlariga esa quyidagilar kiradi:

- a) Prezidentning farmonlari;
- b) Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- v) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari;
- g) mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Ushbu turkumdagi normativ hujjatlar xalq nomidan qabul qilinmagan bo'lib, yakka bir shaxs, davlat mansabdori tomonidan qabul qilinadi va xalq irodasini ifoda etmaydi.

Qonun hujjatlari o'ziga qaraganda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa qonun hujjatlarga muvofiq bo'lishi shart. Ular bir-biriga to'g'ri kelmagan hollarda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan qonun hujjati qo'llaniladi. Teng yuridik kuchga ega bo'lgan qonun hujjatlari bir-biriga to'g'ri kelmagan hollarda keyinroq qabul qilingan hujjat qoidalari amal qiladi.

Quyida O'zbekiston Respublikasida paxta dalalarida majburiy mehnatga aloqasi bo'lgan qonun hujjatlari nomlari va ularning asosiy qoidalarni keltirib o'tamiz. Buning ahamiyati shundaki, paxta terishga majburlanayotgan shaxs qonuniy choralardan samarali foydalanishi uchun, avvalo, majburiy mehnatga aloqador bo'lgan asosiy qonun hujjatlari bilan tanish bo'lishi kerak. Zero, aynan majburiy mehnatga qarshi qonun hujjatlarida mustahkamlangan qoidalarning buzilishi ma'muriy-huquqiy yoki sudlov tartibida choralar ko'rilishi uchun asos bo'ladi.

Quyida majburiy mehnat bo'yicha qonun hujjatlari ularning huquqiy maqomiga ko'ra keltiriladi:

KONSTITUTSIYA

Konstitutsiyaning Muqaddimasida majburiy mehnatni taqiqlashga asos bo'lib xizmat qiladigan tamoyillar mustahkamlangan. Jumladan, Muqaddimada O'zbekiston xalqi inson huquqlari g'oyalari sodiqligini, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglashini, ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilishini, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilishini, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlashini e'lon qiladi.

Konstitutsiyaning 2-moddasiga ko'ra, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Demak, davlatning barcha xatti-harakatlari Muqaddimada mustahkamlangan tamoyillarni amalga oshirish hamda xalqning manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

13-moddaga binoan, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Bu degani, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

14-moddada esa davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi belgilangan.

15-moddada Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinishi aytiladi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishi aytiladi.

19-moddaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liq bo'lib, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir. Mazkur huquq va erkinliklardan sud qarorisiz mahrum etish yoki ularni cheklab qo'yish mumkin emas.

30-moddaga binoan, O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

Konstitutsiya mehnat qilish bilan bog'liq bo'lgan asosiy tamoyillarni ham belgilab bergan. Uning 37-moddasiga kўra, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash va adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega. Mazkur moddada majburiy mehnat taqiqlanishi va unga faqatgina qonunda ko'rsatilgan hollardagina ruxsat berilishi aytiladi.

41-moddada har kim bilim olish huquqiga ega ekani belgilangan. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

43-moddaga ko'ra, davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

44-moddada esa har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi aytiladi.

64-moddada ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur deyiladi.

65-moddaga ko'ra esa, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

QONUNLAR

Mehnat Kodeksi

Kodeksning 2-moddasi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari haqida. Unga ko'ra, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini e'tiborga olgan holda, haqqoniy va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnat huquqlari va sog'lig'i himoya qilinishini ta'minlaydi.

5-moddaga ko'ra, mehnat haqidagi kelishuvlar va shartnomalarning xodimlar ahvolini mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilganiga qaraganda yomonlashtiradigan shartlari haqiqiy emasligi aytiladi.

7-moddada majburiy mehnat taqiqlanishi aytiladi va majburiy mehnat tushunchasiga ta'rif beriladi. Mazkur qonun hujjatiga ko'ra, majburiy mehnat bu biron jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlashdir.

"Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeks

49-modda. Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish

Mansabdor shaxs tomonidan mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi — eng kam ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, — eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

49¹-modda. Voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi talablarni buzish

Voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'i, xavfsizligi yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish — fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

51-moddaga muvofiq esa, qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, mehnatga biron bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash — eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, — eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun

Qonunning 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilangan. Unga ko'ra, ta'lim va tarbiyaning insonparvar xarakterda ekanligi, ta'limni, bilimni bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish kabi prinsiplar mustahkamlangan.

4-moddada esa o'quvchining bilim olish huquqi davlat tomonidan kafolatlanishi aytiladi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi Qonun

Qonunning 3-moddasiga binoan, “bola” deb o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga etgunga) qadar bo'lgan shaxsga aytiladi.

4-moddada bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining, jumladan, quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilangan:

- bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;
- bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash;
- bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash;
- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash;
- bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;
- bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish;

5-moddada davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha, jumladan, quyidagi vakolatlarni amalga oshirishi belgilangan:

- bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini ijro etish;
- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlarini ro'yobga chiqarish;
- bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat organlari, bolalar muassasalari, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;
- bola huquqlarini ta'minlash masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish.

7-moddaga binoan, har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'lishi hamda ular davlat tomonidan kafolatlanishi kerak.

10-moddada har bir bola erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egaligi aytiladi. Shu bilan birga, har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalani sh huquqiga ega. Davlat bolani ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan himoya qilishni amalga oshiradi.

20-moddaga ko'ra, ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan boshlab yo'l qo'yiladi. Bolalarni mehnatga tayyorlash maqsadida ta'lim maskanlari o'n besh yoshga to'lgan bolalarni quyidagi shartlarga jiddiy rioya etgan holda jalb etishi mumkin:

1. Bola ota-onasidan birining yozma roziligi bilan;
2. Mehnat turi bolaning sog'lig'iga va ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmasa;
3. Mehnat turi ta'lim jarayonini buzmasa;
4. Mehnat qilish o'qishdan bo'sh vaqtda bajarilsa.

Davlat o'n sakkiz yoshga to'lmagan ishlovchi shaxslarga ishni ta'lim bilan qo'shib olib borishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berishi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa choralarni ko'rish orqali bolaning mehnat qilish huquqi ta'minlanishi kerak.

QONUNOSTI HUJJATLARI

“O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan og'ir yuk normalarining chegarasini belgilash to'g'risida” Nizom (Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligining 2009-yil 21-apreldagi 17/QQ, 8-sonli qarori bilan tasdiqlangan)

Nizom bolalar ko'tarishi mumkin bo'lmagan og'irliklarga tegishli bo'lgan quyidagi me'yorlarni belgilaydi:

- 16-18 yoshgacha bo'lgan shaxslarning ish vaqti (taxminan, 8 soat) faqat yuklarni qo'lda ko'tarish va tashish bilan bog'liq bo'lgan ishlardan iborat bo'lganda, ular uchun yuk ko'tarish va tashish normasining chegarasi 4,1 kg. dan og'ir bo'lmasligi lozim;
- Bolalar aravacha va vagonetka yordamida yuk tashish ishlariga jalb etilmasligi lozim;
- 16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ish vaqtining uchdan bir qismi (ish vaqti 8 soat bo'lsa, taxminan 2.5 soat) yuklarni qo'lda ko'tarish va tashish bilan bog'liq ishlardan iborat bo'lganda, qo'lda yuk ko'tarish va tashish normalarining chegarasi o'g'il bolalar uchun — 6,5 kg., qiz bolalar uchun — 3,5 kg. dan og'ir bo'lmasligi lozim;
- 16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning ish vaqti faqat yuklarni qo'lda ko'tarish va tashish bilan bog'liq ishlardan iborat bo'lganda, ular uchun yuk ko'tarish va tashish normasining chegarasi 2 kg. dan og'ir bo'lmasligi lozim.

Nizom ish vaqtining uchdan bir qismi yuklarni ko'tarish va tashish bilan bog'liq ishlardan iborat bo'lganda, 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarning yuk ko'tarish va tashish normalarining chegarasi quyidagicha bo'ladi:

Ko'tarish va tashish turlari	Yuk normasining chegarasi		Ko'tarish va tashish shartlari
	Bolalar uchun	Qizlar uchun	
Qo'lda	13 kg gacha	7 kg gacha	Qiyalik balandligi 0,01 dan yuqori bo'lmaganda ruxsat etiladi
Bir g'ildirakli aravachada	39 kg gacha	Qizlarga ruxsat etilmaydi	Qiyalik balandligi 0,02 dan yuqori bo'lmagan faqat taxtali yo'lakda harakatlanishga ruxsat etiladi
Ikki g'ildirakli aravachada	47 kg gacha	Qizlarga ruxsat etilmaydi	Qiyalik balandligi 0,02 dan yuqori bo'lmagan tekis yo'lda harakatlanishga ruxsat etiladi Qiyalik balandligi 0,01 dan yuqori bo'lmagan notekis yo'lda va ko'priklarda harakatlanishga ruxsat etiladi.
Uch va to'rt g'ildirakli aravachada	67 kg gacha	52 kg gacha	Qiyalik balandligi 0,02 dan yuqori bo'lmagan tekis yo'lda harakatlanishga ruxsat etiladi
Vagonetkalarda	405 kg gacha	224 kg gacha	Qiyalik balandligi 0,01 dan yuqori bo'lmagan temir yo'llarda harakatlanishga ruxsat etiladi

“O'qshloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish” Ooidalari (O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 8-fevraldagi 7-B-son buyrug'iga ilova)

Qoidalarda yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta-maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini quyidagi shartlar asosida ishga jalb etish mumkinligi belgilangan:

- O'n besh yoshga to'lgan o'quvchilarni qishloq ishlariga jalb qilishga qo'yiladigan talablar:
 - o Maqsad yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun bo'lishi kerak;
 - o Mehnat turi ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan bo'lishi kerak;
 - o Mehnat ta'lim olish jarayonini buzmasligi kerak;
 - o Mehnat o'qishdan bo'sh vaqtida bajarilishi kerak;
 - o Mehnat qilish uchun ota-onasidan birining yozma roziligi bo'lishi kerak.
- Paxta terimi zararli va noqulay mehnat sharoitida amalga oshiriladigan ish turi bo'lgani uchun, unga o'n sakkiz yoshga to'lmaganlarni jalb qilish taqiqlanadi;
- O'quvchi va talabalar dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgandan keyingina qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinishi mumkin;
- O'rta ta'lim muassasalari rahbariyati va kasaba uyushmasi qo'mitasi birgalikda qishloq xo'jaligi ishlari boshlanishidan oldin mazkur jarayonga jalb qilinishi lozim bo'lgan o'quvchi va talabalarning ro'yxatini tuzib, ularning tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlashi lozim;
- O'quvchi va talabalarni dalaga olib chiqish va olib kelishdan oldin rahbar yo'qlama qilishi va ularga bajariladigan ish turlari bo'yicha to'liq tushuntirish, yo'l-yo'riq berishi lozim;
- Ish joylariga olib borish va qaytarib kelish faqat kunning yorug' paytida amalga oshirilishi lozim;
- G'o'za bargini to'kishi uchun kimyoviy ishlov berilgan maydonga o'quvchi va talabalar kamida 10 kun muddat o'tgandan keyingina ishlashiga ruxsat etilishi lozim;
- O'quvchi va talabalar paxta terimiga jalb qilinishidan oldin maxsus kiyim-boshlar bilan ta'minlanishi kerak.

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish” Qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011 yil 8 fevraldagi 7-B-son buyrug'iga Ilova)

Umumta'lim maktablari, o'rta-maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish bo'yicha mehnatga *noqonuniy bo'lmagan holatda* jalb qilinganda o'quvchi-talabalarga ish vaqtida quyidagi shart-sharoitlar yaratilishi kerak:

- Yashash (dam olish) xonalarida samarali havo almashinuvi tizimi bo'lishi lozim;
- Dala ishlariga jalb qilingan o'quvchi va talabalar hafta davomida 2 marta hammom qabul qilishlari lozim;
- Yuvinish (dush) xonasida yuvinish krani o'rtacha har 8 kishiga bitta bo'lishi kerak;
- Dam olish, ovqatlanish, yuvinish xonalari va hojatxonalar doimiy ravishda 0,5 foizli xlorli ohak eritmasi yoki xloramin bilan yuvib va tozalab turilishi lozim;
- Turar-joy sifatida qo'llaniladigan binoga o'quvchi va talabalarning kelib joylashishlaridan (kamida 10 kun) oldin dezinfeksiya, dezinfeksiya, deratizatsiya ishlari o'tkazilishi shart;
- O'quvchi va talabalarning ichimlik suvidan foydalanishlari uchun suv quvuriga ulangan favvorachalar bo'lishi kerak;
- Suv quvurlari mavjud bo'lmagan hollarda, maxsus idishlarda qaynatilgan suv berilishi lozim;
- O'quvchi va talabalar ishlaydigan hududda har bir kishi boshiga 2 – 5 litr qaynatilgan kunlik ichimlik suvi tayyorlanishi lozim;
- Ichimlik suvining harorati 8°C dan 20°C gacha bo'lishi kerak;
- Ish vaqtining muddati 16 dan 18 yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga 36 soatdan, 15 dan 16gacha bo'lgan shaxslar uchun esa haftasiga 24 soatdan oshmaydigan qilib belgilanishi lozim;
- O'quvchi va talabalarni ish vaqtidan tashqari hamda tungi ishlarga jalb qilish qat'iy taqiqlanadi;
- Yashash (dam olish) binolari yuzasi bir kishi uchun 3 m² dan, o'tish yo'liklarining kengligi 1 metrdan kam bo'lmasligi kerak;
- Bino poli yog'och va shunga o'xshash materialdan bo'lishi lozim;
- Binoning eshik va oynalari yaxshi yopiladigan, oynalar esa tynukchali (fortochkali) bo'lishi kerak;
- O'quvchi va talabalar orasida kasal yoki vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotganlar tibbiy xodim nazoratidan o'tishi va ular sog'liklari to'la tiklanguncha dam olish joylarida qolishi lozim;
- G'o'za bargini to'kishi uchun kimyoviy ishlov berilgan maydonga o'quvchi va talabalar kamida 10 kun muddat o'tgandan keyingina ishlashiga ruxsat etilishi lozim;
- O'quvchi va talabalar paxta terimiga jalb qilinishidan oldin maxsus kiyim-boshlar bilan ta'minlanishi kerak.

Vazirlar Mahkamasining "Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi Konvensiyani hamda Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha" Qarori (2008-yil 12-sentabrdagi 207-sonli Qaror)

Mazkur Qarorga ilova sifatida Milliy harakat rejasi qabul qilingan. Milliy harakat rejasining 20-bandiga binoan, paxta yig'im-terim ishlarida umumta'lim maktablari o'quvchilarining majburiy mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan quyidagi davlat organlari joylarda monitoring olib borishi kerak:

- Xalq ta'limi vazirligi;
- Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi;
- Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari.

Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi Konvensiyani hamda Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi Konvensiyani 2012-2013-yillarda amalga oshirish bo'yicha Qo'shimcha tadbirlar haqida"gi Qarori

Mazkur Qarorga ilova sifatida Qo'shimcha tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Qo'shimcha tadbirlar rejasida quyidagi vazifalarni tegishli davlat organlari zimmlariga yuklaydi (mazkur vazifalar bajarilishi uchun mas'ul davlat organlari ro'yxatini ko'rish uchun Qaror Ilovasiga murojaat qiling):

- Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslar tomonidan bolalarni mehnat qilishga majbur etishga yo'l qo'ymaslik;
- Voyaga yetmaganlar mehnatining qonun hujjatlarida belgilangan normalari va shart-sharoitlariga, shuningdek, Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiya va Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiya talablariga rioya etilishi ustidan amaliy nazoratni ta'minlash;
- Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh va o'n sakkiz yoshdan kichik yoshdagi shaxslarning mehnat qilish shart-sharoitlari yuzasidan joylarda mehnat haqidagi qonunlarga rioya etilishini nazorat qilishni ta'minlash;
- O'quvchilarning darslarga muntazam qatnashmasligining har bir holatini aniq muhokama qilgan holda ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlariga qatnashishini nazorat qilishni kuchaytirish;
- O'quvchilarning o'quv mashg'ulotlariga to'liq qatnashishini va o'quvchilar kontingenti saqlanishini ta'minlash bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rish uchun ta'lim muassasalari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini o'rnatish;
- Umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarning majburiy mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik uchun joylarda monitoring olib borish va nazorat qilish;
- Paxta yig'im-terimi ishlarida umumta'lim maktablari o'quvchilarining majburiy mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik uchun joylarda monitoring olib borish.

2-Ilova

[Maktab direktorining paxta terishga majburlashi ustidan namunaiviy shikoyat arizasi]*

Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Xalq Ta'limi bo'limiga
Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Qo'shariq qishlog'i,
Mustaqillik ko'chasi 1991-uyda yashovchi Begmatova
Jamiladan

SHIKOYAT ARIZASI

Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Qo'shariq qishlog'i 13-maktab direktori Usmon Turdiyev shu maktabning 9-sinf o'quvchisi - qizim Begmatova Nazokatni paxta terimiga chiqishga majburlamoqda. Maktab direktori Turdiyevning mazkur xatti-harakatlarini noqonuniy deb bilaman va sizdan bunga qarshi tegishli choralar ko'rishingizni iltimos qilaman.

* Arizadagi joy va shaxs nomlari to'qima.

Mazkur yilning 8-sentabrda qizimning sinf rahbari Karimova Sharofat farzandimga sinfdagi boshqa o'quvchilar kabi paxta terishga chiqishi shart ekanini aytgan. Qizim esa paxta terishga chiqmasligini aytgan. Ammo Karimova Sharofat qizimni bu gaplari uchun "nozikoyim" deb haqorat qilib, yalqov, dangasalikda ayblagan va "manmanlik qilmasdan indamay el qatori paxtaga chiqishi kerakligini" aytgan. Karimova qizimga paxta terimiga chiqishni xohlamasa, o'rniga boshqa kishini yuborishi kerakligini yoki bo'lmasa 300,000 so'm pul to'lashi kerakligini aytgan. Aks holda, 9-sinfni bitira olmasligini, maktab ma'muriyati 9-sinfni bitirganlik shahodatnomasini bermasligini aytgan.

Shu kabi tazyiq va haqoratlar keyingi kunlari, yani 11, 12, 13-sentabr kunlari ham barcha sinf o'quvchilari oldida davom etgan. 13-sentabr kuni maktab direktori Usmon Turdiyev dars paytida 9-sinf xonasiga kirib, barcha o'quvchilar paxtaga chiqishi shartligini va hech kimning bahona va sabablari o'tmasligini aytgan. Kimda-kim qizim Begmatova Nazokatga o'xshab paxtaga chiqishdan bosh tortsa, 9-sinfni bitira olmasligini va vataniga xizmat qilmaydigan dangasa bo'lishini aytgan. Ushbu so'zlari bilan maktab direktori Turdiyev qizimni barcha o'quvchilar oldida izza qilgan va haqoratlagan.

Sinf rahbari Karimova Sharofat va maktab direktori Usmon Turdiyevning ushbu xatti-harakatlari quyidagi sabablarga ko'ra mehnatga majburlash bo'lib, amaldagi qonunchilikka ko'ra, noqonuniy hisoblanadi:

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida mehnat qilishga majburlash taqiqlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 37-moddasi majburiy mehnatni man etadi. Mehnat Kodeksining 7-moddasida ham shunday qoida belgilangan bo'lib, biron jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlash majburiy mehnat ekani aytilgan.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 4-moddasiga binoan, har bir o'quvchiga bilim olish huquqi davlat tomonidan kafolatlanadi. Farzandimning paxta terishga majburlanishi mazkur huquqning, davlat tomonidan kafolatlangan huquqning jiddiy buzilishi hisoblanadi.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligining 2009-yil 26-iyundagi 33Q/B 13-sonli qaroriga Ilova sifatida "O'z sakkiz yoshdan kichik shaxslarning mehnati qo'llanishi taqiqlangan noqulay mehnat sharoitlari ishlari" Ro'yxati qabul qilingan bo'lib, undagi taqiqlangan mehnat turlari qatoriga "paxtani qo'lda terish" ham kiritilgan (XXXVIII bobga qarang).

Yuqorida ko'rsatilgan sabablarga asoslanib, farzandimni paxta terishga majburlash holatlarining to'xtatilishini so'rayman. Sharofat Karimova yoki Usmon Turdiyev tomonidan qizimni paxta terishga majburlash holati qaytariladigan taqdirda, shikoyat arizasi bilan tegishli yuqori turuvchi davlat organlariga, xususan, prokuratura va sudga murojaat qilishimni bildiraman.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunga asoslanib, shikoyat arizamga 15 kun ichida javob berishingizni so'rayman.

2013-yil 18-sentabr

[Imzo]

Begmatova Jamila

3-Ilova

*[Jinoyat ishlari sudiga mansabdor shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortishni va ma'naviy zararni undirib berishni so'rab yoziladigan arizasa namunasi]**

Jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand viloyati Bulung'ur tumani sudiga Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani, Qo'shtepa ko'chasi 12-uyda yashovchi Alimov Komil tomonidan

ARIZA

(Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani 13-Kasb hunar kolledji direktori Karimov Abdishukrni ma'muriy javobgarlikka tortish hamda ma'naviy zararni undirib berish to'g'risida)

2013-yil 9-sentabrda farzandim - 2-bosqish talabasi Alimov Oybek u tahsil olayotgan Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani 13-kasb hunar kolleji ma'muriyati majburluvi natijasida Bugung'ur tumani Qizilcha jamoa xo'jaligiga

* Arizadagi joy va shaxs nomlari to'qima.

paxta terishga olib ketildi. Kollej direktori paxta terishga bormaganlarga kollejni bitirish haqidagi diplom berilmasligi bilan qo'rqitgan yoki paxtaga chiqmagan talabalar o'z o'rniga 300,000 so'm to'lashi kerakligini aytgan.

Farzandim Alimov Oybek 2013-yil 10-sentabrdan 14-noyabrgacha Bulung'ur tumani Qizilcha jamoa xo'jaligida kuniga kamida 8 soatdan ko'p paxta terishga majbur bo'lgan. Farzandim va boshqa sinfdoshlari Qizilcha jamoa xo'jaligidagi 48-maktab sportzalida yotib yurishgan. Ammo u joy odam yashashi uchun sanitariya-gigiyena hamda xavfsizlik talablariga javob bermaydi. Chunki maktab binosida na issiq suv, na isitish vositalari bor.

Kollej direktori Karimov Abdishukrning xatti-harakatlarini quyidagi sabablarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid deb hisoblayman:

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida mehnat qilishga majburlash taqiqlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 37-moddasi majburiy mehnatni man etadi. Mehnat Kodeksining 7-moddasida ham shunday qoida belgilangan bo'lib, biron jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlash majburiy mehnat ekani aytilgan;
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 4-moddasiga binoan, har bir o'quvchining bilim olish huquqi davlat tomonidan kafolatlanadi. Farzandimning paxta terishga majburlanishi mazkur huquqning, davlat tomonidan kafolatlangan huquqning jiddiy buzilishi hisoblanadi.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligining 2009-yil 26-iyundagi 33Q/B 13-sonli qaroriga Ilova sifatida "O'z sakkiz yoshdan kichik shaxslarning mehnati qo'llanishi taqiqlangan noqulay mehnat sharoitlari ishlari" Ro'yxati qabul qilingan bo'lib, undagi taqiqlangan mehnat turlari qatoriga "paxtani qo'lda terish" ham kiritilgan (XXXVIII bobga qarang).
4. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirining 2011-yil 8-fevraldagi 7-B-son buyrug'iga Ilova sifatida qabul qilingan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish" Qoidalarining mehnat, yashash sharoitlari, gigiyena va sog'liqni saqlash to'g'risidagi bir necha qoidalari buzilgan.

Yuqoridagi holatlarga asoslanib, suddan quyidagilarni so'rayman:

1. Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani 13-kasb hunar kolleji direktori Karimov Abdishukrni O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 51-moddasiga (Mehnatga ma'muriy tarzda majburlov) asosan ma'muriy javobgarlikka tortishingizni;
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksining 57-moddasiga hamda Fuqarolik kodeksining 1021, 1022-moddalariga asosan, farzandim Alimov Oybekning 2013-yil 9-sentabrdan 14-noyabrgacha paxta terishga majburlangani va inson salomatligi va xavfsizligi uchun zararli hamda nomunosib joylarda yashab, mehnat qilishga majbur bo'lganligi, buning natijasida mana'viy va jismoniy aziyat chekkanligini hisobga olib, direktor Karimov Abdishukrdan 1000,000 so'm ma'naviy zarar undirib berishingizni so'rayman.

Илова:

1. Farzandim Alimov Oybekning Samarqand viloyati Bulung'ur tumani, 13-kasb hunar kollejining 2-bosqish talabasi ekanligi haqida ma'lumotnoma;
2. Farzandim Alimov Oybekning 2013-yil 9-sentabrdan 14-noyabrgacha paxta dalasida qanday sharoitlarda mehnat qilgani haqidagi bayonnoma.

2013-yil 4-dekabr

[Imzo]

Alimov Komil

4-Илова

ФОРМА

для представления информации Специальному докладчику по вопросам о современных формах рабства, включая их причины и последствия

1. ЧАСТНОЕ ЛИЦО ИЛИ ОРГАНИЗАЦИЯ, ПРЕДСТАВЛЯЮЩЕЕ ДАННУЮ АНКЕТУ (Эта информация останется конфиденциальной).

(a) Имя частного лица / название организации

- Фамилия:
- Имя:
- Название и тип организации (если такие имеются):

(b) Какое имеет отношение к жертве (жертвам)

(c) Адрес:

(d) Контактные данные (пожалуйста, укажите страну и код региона)

- Факс:
- Телефон:
- E-mail:
- Веб-сайт:

2. ПРЕДПОЛАГАЕМЫЙ ИНЦИДЕНТ

I. Общая информация

- Инцидент затронул только одного человека или группу людей?

- Если он затрагивает группу людей, пожалуйста, отметьте количество затронутых им людей и охарактеризуйте группу:

II. Информация о жертве (ах):

(a) ФИО:

(b) Пол:

(c) Дата рождения и возраст (на момент инцидента)

(d) Национальность:

(e) Род деятельности:

(f) Этническое/религиозное/социальное происхождение, если это уместно:

(g) Адрес:

(h) Другая важная информация:

(i) Дала ли жертва (жертвы) свое согласие отправить эту информацию от ее имени? *Пожалуйста, убедитесь в ее согласии, когда это будет возможно*

(j) Уведомлена ли жертва о том, что если Специальный докладчик решит принять меры от ее имени, письмо с упоминанием случившихся с нею событий будет отослано властям?

(k) Знает ли жертва о том, что если эта информация будет рассмотрена, то краткое изложение случившихся с ней событий будет отображено в открытом докладе Специального докладчика?

(l) Жертва (жертвы) предпочтет упоминание в открытом докладе Специального докладчика своего полного имени или всего лишь инициалов?

III. Информация об инциденте:

(a) Детальное описание нарушения прав человека:

(b) Дата:

(c) Время:

(d) Место (город и страна (страны)):

(e) Количество нарушителей:

(f) Нарушители знакомы или имеют отношение к жертве? Если да, то как?

(g) Имя или прозвище нарушителя (нарушителей) и информация о его личности (описание, шрамы или знаки на теле вроде татуировок, надетая им одежда/униформа, титул/статус, используемый ими транспорт):

(h) Предполагает ли жертва, что она была выбрана из-за её расы, возраста или пола? Если да, то почему?

(i) Если есть свидетели произошедшего инцидента, назовите их имена, возраст, отношение к жертве и контактный адрес. Если они не желают указать своё имя, обозначьте, являются ли они родственниками, прохожими и т.д.; если имеются доказательства, пожалуйста, укажите.

(j) Наблюдались ли жертва (жертвы) у врача после произошедшего инцидента? Есть ли какие-либо документы или записи, касающиеся инцидента?

IV. Информация о предполагаемых нарушителях

(a) Было ли нарушение совершено частными лицами или же группой (а не государственными чиновниками)? Если так, то упомяните любую информацию, которая может показать, что правительство не приняло необходимых мер для предотвращения, расследования, наказания и обеспечения компенсации ущерба от нарушения.

(b) Если непонятно, были ли они государственными или негосударственными агентами, объясните почему.

(c) Если нарушители предположительно были государственными агентами, уточните (военные, полицейские, агенты секретных служб, подразделение, к которому они принадлежат, звание, функции и т.д.), и укажите причины ваших предположений; будьте максимально точными.

(d) Если идентификация государственных агентов невозможно, верите ли вы что государственные власти или связанные с ними люди ответственны за инцидент, и почему?

V. Шаги, предпринятые жертвой, ее семьей или кем-нибудь от ее имени

(a) Было ли сообщено об инциденте соответственным государственным властям? Укажите, были ли поданы жалобы, когда, кем и в какие государственные или компетентные органы (полиция, прокуратура, суд)

(b) Предприняли ли органы государственной власти какие-либо шаги после инцидента?

- Если да, то какие именно органы?
- Что именно они предприняли?
- Когда были предприняты эти шаги (дата и время)?

VI. Законы или государственные меры, которые вызывают или могут вызвать или способствовать данному конкретному нарушению прав человека

Если ваше заявление касается закона или государственных мер, кратко опишите его и последствия его реализации в области прав человека. Приведите конкретные примеры, когда это уместно.

Специальный докладчик по вопросам о современных формах рабства заинтересован в получении информации о законах и государственных мерах, которые носят дискриминационный характер или являются дискриминационными в их применении (например, на основании этнического происхождения, национальности, происхождения и пола); или законы или государственные меры, которые относятся к правам ребенка, например, к вопросу детского труда.

Пожалуйста, сообщите Специальному докладчику о любой дополнительной информации, которая стала доступной после того, как вы представили эту форму, в том числе, если ваша обеспокоенность обратила должное внимание, или конечный исход дела был установлен в ходе следствия или судебного разбирательства..

Дата

Подпись заполнявше